

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**O'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası**

Mamatkulova Shohista Yusufvna

**BULUNG'UR TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK -
SEMANTIK VA ETIMOLOGIK TAHLILI**

5220100 – Filologiya(o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
professor B.Yo'ldoshev.**

SAMARQAND - 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası**

Mamatkulova Shohista Yusufvna

**BULUNG'UR TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-
SEMANTIK VA ETIMOLOGIK TAHLILI**

**5220100 – Filologiya(o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi
Malakaviy bitiruv ishi**

Ilmiy rahbar: professor B. Yo'ldoshev

Rasmiy taqrizchi: dots. A.Turobov.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2013 yil 28-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(9-son bayonnoma).

Kafedra mudiri: prof. Abdusaidov A.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan
va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

**YaDAK raisi
A'zolari:**

prof. Haqqulov I.

SAMARQAND - 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
Mamatkulova Shohista Yusufvna**

**BULUNG‘UR TUMANI TOPONIMLARINING
LEKSIK-SEMANTIK VA ETIMOLOGIK TAHLILI**

**5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi)
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi**

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar: prof.B.Yo‘ldoshev.

SAMARQAND - 2013

REJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

KIRISH

- a) o'zbek toponimikasi va uning o'rganilish darajasi haqida;
- b) Bulung'ur tumani geografik tuzilishi, tarixi haqida qisqacha ma'lumot.

I. BULUNG'UR TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA STRUKTURAL-GRAMMATIK TAHLILI

- 1. Bulung'ur mikrotoponimlari lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida.
- 2. Bulung'ur mikrotoponimlarining lug'aviy-grammatik tarkibi haqida.
- 3. Bulung'ur mikrotoponimlarining strukturasi va yasaliş usullari.
- 4. Bulung'ur mikrotoponimlarining tasnifi haqida.

II. BULUNG'UR TUMANI TOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

- 1. Toponimlarni etimologik tahlil qilish haqida umumiy tushuncha.
- 2. Bulung'ur tumanidagi sodda mikrotoponimlarining etimologik tahlili.
- 3. Bulung'ur tumanidagi qo'shma va birikmali etnotoponimlarning etimologik tahlili.

UMUMIY XULOSALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

SHARTLI QISQARTMALAR.

ILOVA:

Bulung'ur tumani toponimlarining qisqacha izohli lug'ati.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, geografik ob'ektlarga atab qo'yilgan nomlar o'zida nafaqat muayyan joy tarixi haqida ma'lumot tashiydi, balki shu bilan birgalikda, lingvistik birlik sifatida xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviyati to'g'risida guvohlik berib turadi¹. O'zbek onomastikasining tarkibiy qismi bo'lgan toponimika keyingi yillarda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Ushbu sohaning o'z tadqiqotchilari etishib chiqdi. Toponimikaning nazariy masalalariga, geografik ob'ektlar nomlarini hududiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga kelmoqda².

Shunga qaramasdan, Samarqand viloyati toponimiyasi materiallari yetarli darajada to'plangan va tadqiq qilingan emas. Bu borada T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov va S.Bo'riyevlarning nomzodlik dissertatsiyalari³ B.O'rinboev tomonidan yozilgan asarlar⁴ hamda N.Elmurodov, Sh.Temirovlarning ayrim kuzatishlari⁵dan boshqa ishlar yuzaga kelgan emas. Vaholanki, Samarqand va uning atrof hududi toponimlarini lingvistik tahlil etish O'zbekistonning qadimiy hamda zamonaviy tarixini o'rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qadimiy hududlardan biri bo'lgan Bulung'ur tumani toponimlarini leksik-semantik va etimologik jihatdan o'rganish ham ana shunday muammolar qatoriga kiradi. Bu esa malakaviy bitiruv ishimizning mavzusi dolzarbligidan dalolat beradi.

¹ Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2009, 4-бет.

² Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимияси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006, 8-9-бетлар.

³ Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и ее окрестностей. Автореф. дис... канд. филол. наук. – М.: 1973. – 31 с.; Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Тurobov A. Самарқанд вилояти этноонимларининг таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.

⁴ Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1997. – 202 б.;

Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 2003. – 264 б.

⁵ Элмуродов Н. Топонимияда экстралингвистик омиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. 3-сон, 93-95-бетлар; Темиров Ш. Эгизтепа / Эгизактепа оронимлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 4, 92-94-бетлар ва бошқалар.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Samarqand viloyati hududi toponimiyasi bilan shug'ullangan T.Rahmatov, B.O'rinboyev, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo'riyevlarning asarlarida⁶, shuningdek, ayrim maqolalarda Bulung'ur tumani toponimiyasiga oid ayrim epizodik xarakterdagi mulohazalar uchraydi xolos. Masalan, T.Enazarovning "*Kasbi va Bulung'ur* toponimlarining etimologiyasi haqida" nomli maqolasi e'lon qilingan. Bu maqolada Bulung'ur toponimi haqida shu kungacha lug'atlarda bildirilgan turli qarashlar keltirib, ular umumlashtirilgan hamda bu toponimning etimologiyasi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "Bizningcha, ushbu toponim ikkita topoleksema asosida so'z birikmasi, qo'shma so'z va toponimik derivatsiya jarayonini boshidan kechirib, joy nomiga aylangan: *burun+g'ur* > *burun g'ur* > *burung'ur* > ***Bulung'ur...***"⁷. Yoki S.Qoraevning mulohazalariga ko'ra, "qadimgi suv inshootlaridan biri Zarafshon daryosidan suv oladigan Bulung'ur kanalidir. V.V.Bartold kanal Amir Temur davrida qazilgan bo'lsa kerak, degan edi. Arxeologik qazilmalar Bulung'urning milodning boshlarida qazilganini ko'rsatdi. Bulung'ur so'zi mo'g'ul tilida "loyqa suv" degan ma'noni bildiradi. Surxondaryo viloyatida Bulung'ur nomli soy, Xitoyda Buluntszir, ya'ni Bulung'ur degan daryo bor"⁸. M.Abdiyev Bulung'ur tumanidagi onomastik birliklarni, jumladan toponimlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etishi haqida ayrim fikr-mulohazalarini bildirgan edi¹. Ammo bunday fikrlar tilga olingan tuman toponimlarining til xususiyatlari haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Hudud toponimlari hozirga qadar batafsil to'plangan va ilmiy tadqiq qilingan emas.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi

⁶ Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и ее окрестностей. Автореф. дис... канд. филол. наук. – М.: 1973. – 31 с.; Бегалиев Н. Самарканд вилояти гидронимлари. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Самарканд, 1994. – 25 б.; Ўринбоев Б. Самарканд вилояти топонимларининг изохи. – Самарканд: СамДУ нашри, 1997. – 202 б.; Тurobov A. Самарканд вилояти этноойконимларининг таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарканд: "Зарафшон" нашриёти, 2003. – 264 б. Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.

⁷ Эназаров Т. *Касби ва Булунгур* топонимларининг этимологияси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2003. № 2, 95-бет.

⁸ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005, 109-бет.

Bulung'ur tumani mikrotoponimlarining tarixiy va zamonaviy shakllarini batafsil to'plash va ularni leksik-semantik hamda etimologik jihatdan tahlil etishdan iboratdir.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida malakaviy bitiruv ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Bulung'ur tumani toponimlariga doir materiallarni to'plash va sistemalashtirish;
- Bulung'ur tumani toponimlarini leksik-semantik guruhlariga ajratish;
- Bulung'ur tumaniga oid mikrotoponimlarning lug'aviy va qisman struktural-grammatik xususiyatlarini o'rganish hamda hududiy xoslanish qonuniyatlarini yoritish;
- Bulung'ur hududi toponimlarining yasashida ishtirok etadigan til birliklarining chastotasi va funksional xususiyatlarini aniqlash;
- Bulung'ur hududi toponimiyasida keyingi o'n yilliklarda sodir bo'lgan o'zgarishlarini belgilash va bunda mustaqillik, milliy istiqlol davri ijtimoiy-siyosiy hayotining ta'sirini o'rganish;
- Bulung'ur tumaniga oid mikrotoponimlarning viloyat va respublika hududi toponimiyasi tizimida tutgan o'rnini belgilash.

Malakaviy bitiruv ishning ob'ekti va predmeti. Ishning tadqiq ob'ekti Bulung'ur tumani mikrotoponimlari bo'lib, bunda malakaviy bitiruv ishi muallifining o'z kuzatishlari hamda SamDU O'zbek tilshunosligi kafedrasidan 2009-2012-yillarda olib borilgan dialektologik-toponimik ekspeditsiya jarayonida to'plangan 500 dan ortiq toponimlar, shuningdek, ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalaridan to'plangan toponimikaga doir faktik dalillar tadqiqot materialini tashkil etadi.

Bunda Bulung'ur tumanining ijtimoiy-siyosiy hududini tasdiqlovchi yuridik manbalar ilmiy-daliliy asos vazifasini o'tadi. Shu bilan birga, tuman hayoti aks etgan tarixiy, geografik, adabiy manbalardan, «Bulung'ur hayoti» gazetasi materiallaridan ham foydalanildi. Shu asosda tuman toponimlarining elektron

katalogini tuzib chiqishga harakat qilindi, tuman mikrotoponimlarini semantik jihatdan tasniflash amalga oshirildi.

Malakaviy bitiruv ishining metodlari. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tarixiy qadriyatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtiromi, milliy merosimizdan faxrlanish g‘oyasi malakaviy bitiruv ishimiz uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Ishning tadqiq metodlarini O‘zbek toponimist olimlari Z.Do‘simov, H.Hasanov, S.Qorayev, A.Muhammadjonov, T.Rahmatov, N.Oxunov, B.O‘rinboyev, T.Nafasov, T.Enazarov, A.Turobov, N.Begaliyev, S.Bo‘riyev kabi olimlarning ishlarida qo‘llanilgan onomastik tahlil, jumladan, qiyosiy, tavsifiy, lug‘aviy-ma‘naviy, etimologik tahlil usullari tashkil qiladi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Bulung‘ur tumani hududi toponimlarining nomlanish tamoyillari, lisoniy o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlandi;
- Bulung‘ur tumani hududida tarqalgan mikrotoponimlarning tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari belgilandi;
- Bulung‘ur tumani hududining mikrotoponimiyasi uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik modellar aniqlab chiqildi va ular qisman etimologik jihatdan tahlilga tortildi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi yana quyidagilarda ko‘rinadi:

- Bulung‘ur mikrotoponimlarining to‘liq materiali ilk bor batafsil to‘plandi va tartibga solindi;
- Bulung‘ur tumani hududiga oid toponimlar leksik-semantik jihatdan tasniflandi;
- Bulung‘ur tumani toponimlari anglatgan ma‘nolar o‘rganildi, hududdagi joylarning nomlanish motivlari belgilandi;
- Bulung‘ur tumani toponimlarining lingvistik strukturasi hamda yasash usullari tahlil qilindi. Bunda ishtirok etuvchi toponimik indikatorlar, topoformantlarning o‘rni va vazifasi aniqlab chiqildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dala sharoitida ishlash usulidan foydalanib to'plangan ma'lumotlar Bulung'ur tumani mikrotoponimlari, ular yasalishining regional xususiyatlari haqida chiqarilgan ilmiy xulosalar O'zbek onomastikasi, xususan, toponimikasida mavjud bo'lgan qarashlarga muayyan darajada aniqliklar kiritishga yordam beradi, bu esa malakaviy bitiruv ishining nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va joriylanishi. Malakaviy bitiruv ishi "Ishning umumiy tavsifi", "Kirish", ikki bob, "Umumiy xulosalar", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati", "Shartli qisqartmalar" va "Ilova" qismlaridan iborat. Mazkur malakaviy bitiruv ishining ayrim natijalari qisman quyidagi maqolalarda o'z aksini topgan¹.

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asaridagi quyidagi fikrlar biz tadqiq etayotgan material nihoyatda muhim

ekanligidan dalolat beradi: “Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko’cha va xiyobonlari - metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o’zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko’rib bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko’rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko’chalarning nomlarini o’qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo’lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo’ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo’lmagan kimsalar edilar. Yoki shahardagi aksariyat turar joy mavzelari “TS-1”, “TS-2”, “TS-15” degan, odamda hech qanday his tuyg’u, xotira uyg’otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelganini eslaylik. Bularning barchasi zahirida sovet mafkurasiga xos bo’lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg’usidan judo qilishga qaratilgan, g’arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Holbuki, ajdodlarimiz o’zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o’n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma’noli go’zal nomlarni olaylik. Samarqand, Beshyog’och, Ko’kcha, Chig’atoy, Sog’bon, Labzak, Textapul, Qorasaroy, Komolon, Qo’ymas, Qo’qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalombor o’zining aniq, tarixiy-jug’rofiy ma’nosi bilan ajralib turadi.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o’z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko’nachilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O’kchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o’troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo’lganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo’lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o’rniga Mirobod, Rakat, Mingo’rik, Darxonariq, Shayxontohur,

Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi asl nomlarning tiklanganligi, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz"¹.

O'zbek tilshunosligining keyingi yillarda jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri O'zbek nomshunosli yoki onomastikadir. Onomastika so'zi yunoncha (onomastikos – nom berish san'ati)dan olingan bo'lib, tilshunoslikning tildagi har qanday atoqli otlarni tadqiq etuvchi sohasi ma'nosini bildiradi¹.

Onomastika sohasining tez sur'atlar bilan taraqqiy etganligining o'ziga xos sabablari ham bor. Shunday sabablaridan biri atoqli otlar O'zbek tili leksikasining eng boy tarmoqlaridan biri ekanligidadir. Mana shu lug'aviy material o'tgan asrning 60-yillarigacha juda kam o'rganilgan edi.

Ikkinchidan, atoqli otlar paydo bo'lishi, tildagi mohiyati va vazifalariga ko'ra xalq madaniyati mafkurasi bilan bog'langan lug'aviy qatlamdir. Chunki, joy nomlarida O'zbek xalqining o'tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, etnografik diniy tasavvurlari o'z ifodasini topgandir. Mana shu ma'noda joy nomlari xalqning madaniy ma'naviy tilining mevasidir. Nom zamiridagi tarixni ochish uchun nom yaralgan davrga sayohat qilish zarur. O'shandagina nomning mag'zi, ma'nosi, tarixi to'g'ri aniqlanadi. Nomning asosini tilning hozirgi holatidan, zamonaviy ijtimoiy voqelikdan qidirmaslik kerak¹.

Nomning bosh fazilati - tarixiylik, qadimiylik. Nomda davr madaniyati, zamon ma'naviyati va mafkurasi, nom qo'yuvchilarning dunyo qarashi aks etadi. Shu bois joy nomlari tarixiy yodgorlik maqomida bo'ladi.

Nom - tarix, madaniyat va til yodgorligidir. Ana shuning uchun mamlakatimizda joy nomlari maxsus qonunlar bilan davlat himoyasiga olingan¹.

1996-yilning 31-mayida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklari, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob'ektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida" qabul qilingan qarori, 1996-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish,

toponimik ob`ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa hujjatlarga munosabat bildirilib, toponimik ob`ektlarga nom berish masalasini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining faoliyati mikrotoponimlarning mustaqillik mafkurasi asosida tartibga solinishida ijobiy rol o'ynamoqda. Ana shu qonunlarga asoslangan holda, nomlarini aniqlashda, nomga asos bo'lgan so'z va qo'shimchalarning qaysi tilga mansubligi haqida aniq ma'lumot berilgan; nom tartibidagi so'z va qo'shimchalarning o'sha nom paydo bo'lgan davrdagi ma'nosi yoki nom tarkibida anglatgan qadimiy ma'nosini aniqlash birinchi o'rinlarda turgan¹.

Keyingi yillarda davr bilan hamnafas bo'lgan holda turli yangiliklardan mohirona foydalanish asosida til fanlarini o'qitishda juda ko'p yangiliklar yuzaga kelmoqda. Asrlar davomida yaratilgan lisoniy, madaniy va ma'naviy meros hisoblanmish joy nomlari ham o'zining alohida o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Ularda xalqning qadimiy davrlaridan tortib to shu kungacha bo'lgan noyob tajriba va turli e'tiqodlari o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, har bir tilning lo'g'at tarkibida atoqli otlar katta o'rin egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, taxalluslari, shuningdek geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar qatoriga kiradi. Bunday atoqli otlar bir butun holda tilning onomastik boyligini tashkil etadi.

Nomshunoslik haqidagi ma'lumotlarni to'plash ancha qadimiy tarixga egaligi uchun ham bugungi kungacha nomlar har jihatdan mukammal tarzda bizgacha etib kelgan. Bu ma'lumotlar tarix, til, geografiya, etnografiya, ekologiya, psixologiya, falsafa kabi bir qancha fanlarning ishonarli dalillari majmuida aralash hamda qorishiq shaklda, bugungi kunga qadar ham mavjud bo'lib kelmoqda. Joy nomlari juda uzoq davrning mahsuli bo'lib til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya kabi fanlar uchun boy faktik ma'lumotlar beruvchi manbasidir¹.

Geografik obektlarga atab qo'yilgan nomlar o'zida nafaqat muayyan joy

tarixi madaniyati va ma`naviyati haqida ma`lumot tashiydi shu bilan birgalikda, lingvistik birlik sifatida xalqning tarixi, madaniyati va ma`naviyati to`g`risida guvohlik berib turadi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi:

“Ma`naviyat o`z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo`lmaganidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi”¹.

Bizga ma`lumki, O`zbek onomastikasi (nomshunosligi) o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi.

O`zbek nomshunosligi bo`yicha olib borilgan keng ko`lamli tadqiqotlar O`zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiya, risolalar, izohli lug`atlar ko`p sonli ilmiy maqolalar nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari bilan boyitdi.

Bu davrlarda O`zbek toponimikasi bo`yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo`ldi. Shu kunga qadar O`zbek toponimikasi bo`yicha 20 dan ortiq nomzodlik, uchta doktorlik (Z.Do`simov, S.Qorayev, T.Enazarov) ishi himoya qilingan. O`zbek toponimikasi bo`yicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo.Xo`jamberdiev, X.Xolmo`minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliev, A.Turobov, S.Bo`riyev), Sirdaryo viloyati (N. Mingboev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslanov), Navoiy viloyati (O`.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg`ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Andijon viloyati (A.Ergashev), Xorazm viloyati (Z.Do`simov, A.Otajonova, M.Tillayeva) Qoraqalpog`iston Avtonom Respublikasi (D.Yo`ldoshev), Toshkent shahri (Sh.Qodirova) toponimiyasi bo`yicha yozilgan edi. T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do`simov, B.O`rinboyev, T.Raxmatov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov, S.Nayimov kabi olimlarning sayi harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg`ona,

Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi.

Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarimizning ilmiy ishlariga batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak, O'zbek toponimiyasiga oid dastlabki monografik ish T.Nafasov tomonidan bajarilgan. Mazkur ishida Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlarning nomlanish asoslari, etimologiyasi, ularning sutrukturnal-grammatik tuzilishi va yasalishi masalalari keng va atroflicha tadqiq etilgan edi¹. Mustaqillik yillarida prof. To'ra Nafasov toponimika sohasida ko'plab shijoat bilan mehnat qilmoqda, olimning "O'zbek nomnomasi" (1993), "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" (2007), "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari" (2008), "Qashqadaryo qishloqnomasi" (2009), "Chiroqchinoma" (2010) kabi bir qancha yirik tadqiqotlari mavjud.

O'zbekiston hududidagi toponimlarning tarixiy-ilmiy tahlilida taniqli geograf olim S.Qorayevning izlanishlari ham alohida o'rin tutadi. Bu ishlarda O'zbekiston hududidagi tarixiy va zamonaviy toponimlar qiyosiy-tarixiy yo'nalishda chuqur tahlil qilingan. S.Qorayev toponimik lug'atlar tuzish, nomshunoslikka doir ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar yaratish sohasida ham ibratli ishlarni amalga oshirgan. Uning bu sohadagi serqirra faoliyatiga doir ma'lumotlar S.Qorayev qalamiga mansub quyidagi ishning bibliografiya qismida mavjud¹.

Xorazm vohasi toponimlarining ilmiy-lingvistik tahlilida prof. Z.Do'simovning xizmati kattadir. Olimning nomzodlik va doktorlik disertatsiyalari, monografiyasi xuddi shu mavzuga bag'ishlangan edi.

Shuningdek Yo.Xo'jamberdiyev Surxondaryo viloyati, S.Nayimov esa Buxoro viloyati toponimlarini o'rganish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirdi. N.Oxunovning nomzodlik ishi esa Qo'qon guruhi tumanlarining toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan edi.

O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar ko'lamining kengayishida serg'ayrat

olim T.Enazarovning ham alohida oʻrni bor. Olimning nomzodlik ishi Shahrisabz hududi joy nomlarining tahliliga bagʻishlangan boʻlsa, doktorlik dissertatsiyasi toponimlarning lugʻaviy asoslari va etimologik tadqiq muammolarini oʻz ichiga qamrab olgan edi. 2012-yilda “Til va adabiyot taʼlimi” jurnalida T.Enazarovning toponimlarning etimologik tahliliga doir qiziqarli maqolasi eʼlon qilindi¹.

Mamlakatimizda toponimikaga doir monografik tadqiqotlar, risolalar, oʻquv qoʻllanmalari yaratishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu oʻrinda S.Qorayevning “Toponimika – joy nomlari haqidagi fan” (1980), “Toshkent toponimlari” (1991), “Toponimika” (2006), M.Mamedovning “Xalq nomlari joy nomlari haqidagi fan” (1981), L.Karimovanning “Oʻzbek tilida toponimlarning oʻrganilishi” (1982), T.Enazarovning “Oʻzbekiston toponimikasi” nomli maxsus kursni oʻqitish metodikasi (1999), “Toponimlar etimologik tadqiqining ilmiy-nazariy va amaliy usuliy asoslari” (2001), “Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi” (2002), “Oʻzbekistondagi baʼzi toponimlarning etimologik talqini” (2004), “Nomshunoslik masalalari” (2010), N.Oxunovning “Joylar va nomlar” (1986), “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari” (1989), A.Otajonovanning “Xorazm etnotoponimlari” (1997), Z.Doʻsimov va M.Tillayevaning “Joy nomlarining siri” (2001), “Toponimika asoslari” (2002), A.Turobovning “Samarqand etnonim va etnoykonimlari” (2004), T.Qurbonov, M.Xudoyberdiyevlarning “Badiiy asarlarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari” (2006), S.Karimov, S.Boʻriyevlarning “Oʻzbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida” (2006), B.Qilichevning “Buxoro viloyati toponimlari” (2008), N.Begaliyevning “Samarqand toponimiyasi” (2010), B. Yoʻldoshevning “Oʻzbek onomastikasi masalalari” (2011) kabi bir qator ishlarini alohida taʼkidlash lozim.

Shu oʻrinda aytish kerakki, joy nomlari tarix darakchilari, moziy jarchilari, ovozsiz xabarsiz ellarning bagʻridagi kechmishini oʻqish va uqish zarur. Tarix dalillari oʻtmish haqiqati bilan yoʻgʻrilsagina jarchining ovozi baralla yangraydi. Bagʻridagi xalq kechmishini koʻz-koʻz qilib namoyon etishga qodir.

Nomlarning darakchiligi shundaki, nom qachon, qayerda, kimlar tomonidan nima uchun va nima sababdan, hamda nima maqsadda yaratilgan degan soʻroqlarga javob topishni talab qiladi¹.

Bu fikrlarni bejizga keltirmadik. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarimiz shu savollarga javob izlab, ozmi-koʻpmi bu natijalarga erishganlar. Oʻzbek toponimika sohasini bir pogʻona boʻlsada baland koʻtara olganlar. Bizga maʼlumki, joy nomlari xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlar va tili bilan bogʻliq boʻlib, uning tadqiqi nihoyatda samarali ilmiy ish sanaladi.

Toponimika fani uzoq yillik tarixga ega. Odamlar joy nomlari va ularning nomlanish xususiyatlari bilan asrlar davomida qiziqib kelganlar. Bevosita shu sohaga oid boʻlmasa-da ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, tarixiy, badiiy, etnografik, memuar asarlarda toponimlar va ularning xususiyatlari haqida bahs yuritib, maʼlumot berib kelganlar.

Nomlar xususida soʻz borar ekan, nomlar xalq tarixining eng sodda, oʻta sinqiq, nihoyatda ixcham tarixi boʻlib, ular mahalla-yu qishloq, tuman-u shahar, daryo-yu koʻl, arigʻu buloq, togʻu-tepa, adir-u dala nomi boʻlishidan qatʼiy nazar xalq yaratgan ijodiy amaliy mulki ekanligini inobatga olish lozim boʻladi. Nomlarni har bir xalq maʼlum bir makonda va zamonda ijtimoiy muhit ehtiyojidan kelib chiqqan holda yaratganlar.

Nomlash uchun asosni va uni belgilovchi omilu, sababni shu davr muhiti tavsiya etishi lozim boʻlgan. “Nom – davr, zamon mahsuli”¹ degan fikr esa bizning bu qarashlarimizni har jihatdan toʻldiradi.

Bulungʻur tumani Samarqand viloyatining katta hududga ega boʻlgan tumanlaridan biri sanaladi. Bu hudud alohida tuman sifatida 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Tuman chegaralari xususida gapirar ekanmiz, bu tuman hududi shimoldan Jizzax viloyatining Gʻallaorol tumani bilan, sharqda Baxmal tumani bilan chegaralangan. Gʻarbdan esa Samarqand viloyatining Jomboy tumani, janubiy-gʻarbda Tayloq tumani, janubda Urgut tumani va janubiy-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradoshdir.

Tumanning umumiy maydoni 0,76 ming km kv. ga teng. 2000 yil aholi ro'yhatidagi malumotlarga qaraganda bu tumanda 116, 8 ming kishi yashaydi. Tumanda bitta shahar (Bulung'ur) 7 ta qishloq fuqarolar yig'ini (Beshqo'ton, Kulchabiy, Navoiy, Sohibkor, Fozil Yo'ldosh, O'rtabuloq, Kildon) mavjud. Markazi Bulung'ur shahridir¹.

Tabiati. Bulung'ur tumani Turkiston tizma tog'larining janubiy-g'arbidagi tog' oralig'i botig'ida joylashgan. Er yuzasi tekislik. Tuman sharqida G'ubdintog' bor. Yer usti tuzilishi tog' oldi tekisliklari, adirlar, past tog'lardan iborat bo'lib, mutlaq balandligi 800-1000 m. Iqlimi kontinental, quruq iqlim. Adirlarda Axtambuloq, Qarabkibuloq, Mirzabuloq kabi buloqlar bor. Tuman xududidan Bulung'ur, Yangibesh, Qoraariq, Qorasuv, Polvonariq, Tuyatortar, Oqtepa, Oqariq kabi ariq va kanallar o'tadi. Tuman erlari asosan qumloq va bo'z tuproqlardan iborat. Tuman hududida shuvoq, efemer va efemeroidlar o'sadi. Shuningdek, tumanda to'qayzorlar ham bor. Tuman xududidagi to'qayzorlarda yovvoyi hayvonlardan bo'ri, chiyabo'ri, tulki, quyon, bo'rsiq, parrandalardan tustovuq, kaklik, bedana yashaydi.

Tumanda yashovchi aholining o'rtacha umumiy zichligi 1 kv. km ga 157 kishi to'g'ri keladi. Shahar aholisi 23,2 ming kishi, qishloq aholisi esa 93,6 ming kishini tashkil etadi. Tumanda yashovchi aholi 30 dan ortiq millat va elat kishilarini birlashtiradi. Ular rus, tojik, o'zbek, arab, ukrain, tatar, koreys va boshqa millat vakillaridir.

Tumanda kishilar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Tumanda bir qator sanoat, transport korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Tumanda 11 ta qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash sanoat korxonasi mavjud, shulardan 8 tasi uzumni qayta ishlashga, 2 tasi konserva maxsulotlari ishlab chiqarishga va 1 tasi meva va sabzavotlarni quritishga ixtisoslashgan. Tumanda 58 ta kichik korxona hamda 5 ta aktsiyadorlik jamiyati mavjud. Qishloq xo'jaligining etakchi tarmoqlarini tokchilik, pillachilik, chorvachilik, g'allachilik, savzavotchilik, kartoshkachilik tashkil etadi. Tuman hududida hozirgi vaqtda

sugʻoriladigan erlar 19 ming gektar er maydoniga, ekinzorlar 31 ming gektarga teng keladi. SHu jumladan, tumandagi 5877 gektar erga tok, 2 ming gektar erga savbavot, 750 gektar erga kartoshka, 14525 gektar erga gʻalla, 2144 gektar erga mevali daraxtlar ekilgan. Bulungʻur tumanida 20 ta shirkat xoʻjaligi, 33 ta dehqon va fermer xoʻjaligi mavjud. Tuman shirkat va shaxsiy xoʻjaliklarida 41,6 ming qoramol, 31,6 ming qoʻy va echki, 42,0 ming parranda boqiladi. Toshkent – Buxoro temir yoʻlining 19 kilometri Bulungʻur tumani xududidan oʻtadi va bu yoʻl hozirgi kunda toʻliq elektrlashtirilgan. Bulungʻur tumanidan Olma Ota – Toshkent – Termiz katta avtomobil yoʻli trassasi oʻtgan boʻlib, uning uzunligi 22 km.ga teng keladi.

Bulungʻur tumanida hozirgi vaqtda 66 ta umumtaʼlim maktabi boʻlib, ularda 31,6 ming oʻquvchi taʼlim oladi. Shu bilan birga tumanda 8 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat koʻrsatmoqda, ularda ham koʻplab oʻquvchi-talabalar tahsil olmoqdalar. Tuman markazida va ayrim kishloklarda kasb-hunar kollejlari va musiqa hamda sport maktablari faoliyat koʻrsatadi. Hozirgi kunda Bulungʻur tumanida 20 dan ortiq kutubxonalar, 16 ta madaniyat uyi, stadion va sport maktablari ishlab turibdi¹.

Shunga muvofiq, Bulungʻur tumani mikrotoponimlari ham xilma-xil boʻlib, ular orasida qishloq nomlari, mahalla nomlari, qishloq fuqarolar yigʻini nomlari, ariq, qir, adir nomlari koʻpchilikni tashkil etadi. Umuman olganda, Bulungʻur tumani mikrotoponimiyasi boʻyicha toʻplangan materiallar hozircha 500 dan koʻproq boʻlib, bu sohadagi kuzatish va izlanish ishlari yana davom ettirilishi lozim degan fikrdamiz.

I. BULUNG‘UR TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK- SEMANTIK VA STRUKTURAL-GRAMMATIK TAHLILI

Ma`lumki, joy nomlari (toponimlar) til lug‘at fondining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan ma`lum bir farqli xususiyatlarga ham ega. Bunday farqli holatlar toponimlarning uzoq muddat yashashida, ularning ko‘p komponentlardan, tarkibli qismlardan iborat bo‘lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko‘ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (appelyativlar) bevosita ishtirok eta olishida o‘z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo‘lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o‘ziga xos vositalar ham yuzaga keladi, ya`ni tildagi muayyan suffikslar (affikslar) va so‘zlar faqat yoki, qisman toponimlar yasashda xizmat qiladi.

Mazkur bobning “Bulung‘ur mikrotoponimlarining lug‘aviy grammatik tarkibi” qismida biz tuman mikrotoponimiyasining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishga intilamiz.

Asl toponimik ma`noning tiklanishiga xizmat qiluvchi muhim jihat sifatida olimlar shakllanishining grammatik, ayniqsa morfologik jihatlarini nazarda tutish

zarurligi, shuning uchun ham joy nomlarining lingvistik modelining aniqlanishini, soʻz tarkibida **oʻzak+oʻzak**, **oʻzak+qoʻshimcha** shaklida ishtirok etayotgan har bir birlikdagi leksik-semantik xususiyatlarning obʼektiv oʻrganish zarurligini alohida taʼkidlamodalar¹.

Mavjud adabiyotlardagi ilmiy dalillarga asoslanib, Bulungʻur tumani toponimlarini lugʻaviy-grammatik jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil etish mumkin¹.

1. Bulungʻur tumanidagi yakka komponentli, faqat bir **oʻzak shakliga teng boʻlgan sodda toponimlar:**

Bunday toponimlarga hududdagi *Tumor*, *Boʻston*, *Tumshuq*, *Chuyut*, *Moʻmin*, *Changal*, *Toʻqay*, *Moʻgʻol*, *Qum*, *Rovot* kabi joy nomlari kiradi.

2. Bulungʻur tumanidagi ikki komponentli **oʻzak+oʻzak shakliga teng boʻlgan qoʻshma toponimlar:**

Bunday ikki oʻzakli qoʻshma toponimlarga *Oq+ariq*, *Besh+qoʻton*, *Besh+bola*, *Oq+qovun*, *Qora+qoʻngʻirot*, *Bozor+joy*, *Gul+buloq*, *Almat+soʻfi*, *Mulla+toʻp* singari joy nomlari mansubdir.

3. Bulungʻur tumanidagi **oʻzak+soʻz yasovchi qoʻshimcha** strukturasi ega sodda yasama tuzilishga ega boʻlgan toponimlar:

Bunday guruxga tuman hududidagi *Shivoq+li*, *Gul+zor*, *Bolgʻa+li*, *Tinch+lik*, *Suloq+li*, *Sohib+kor*, *Moʻmin+obod* singari toponimlarni kiritish mumkin.

4. Bulungʻur tumanidagi **oʻzak+oʻzak+affiks+affiks** stukturasiga ega boʻlgan birikmali tuzilishga ega boʻlgan toponimlar. Bunday tuzilishga ega boʻlgan joy nomi biz toʻplagan materialga koʻra quyidagi toponimlar mansubdir: *Soy xoʻjabachcha*, *Sart yuzi*, *Oq tom beshbola*, *Past qoʻshtamgʻali* qishloqlari kabilar.

5. Bulungʻur tumanidagi **oʻzak+yasovchi afiks+yasovchi affiks** strukturasi ega boʻlgan toponimlar. Bunday joy nomlari ham tuman hududida faqat bitta ekanligi maʼlum boʻldi: *Tin+ch+lik*.

Ko'rinadiki, Bulung'ur tumani hududida faqat bir o'zak shaklidagi joy nomlari unchalik ko'p emas Biz yuqorida keltirgan bir o'zakli joy nomlarining izohini, leksik semantik xususiyatlarini aniqlashga intilamiz.

1.1. TUMOR - tumandagi katta hududga ega qishloqlardan biri sanaladi. Tumor – *ichiga duo yozilgan qog'oz joylangan uchburchak narsa, xotin-qizlar bezagi* ma'nosidadir [O'TIL-5, 4, 188]. S.Qorayev *tumar // tumor // dumar* so'zini qipchoq qabilasiga mansub bir urug'ning nomi, ya'ni etnonim deb hisoblaydi [S.Qorayev, 126]. Shunga asoslanib, Bulung'ur tumanidagi bu qishloq nomini etnonimdan oykonimga o'tgan, deyishimiz mumkin.

1.2. BO'STON – tumandagi qishloq. Bu nom forsha-tojikcha so'z bo'lib, bog'-rog'li joy, daraxt ekib obod qilingan manzil degan ma'noni bildiradi [T.Nafasov, 49]. Shu bilan birga J.Latipovning ta'kidlashicha, Marg'ilon shahri atrofida o'zbeklarning bo'ston deb nomlanuvchi urug'i vakillari yashaydi¹. Bo'ston toponimining urug' nomi (etnonim) bilan aloqadorligini S.Qorayev ham o'z lug'atida alohida ta'kidlaydi [S.Qorayev, 42]. Shundan kelib chiqib biz ham Bulung'ur tumanidagi *Bo'ston* qishloq nomini aslida urug' nomi (etnonim) bo'lgan, keyin davrlar o'tishi bilan bu etnonim oykonim (qishloq nomi)ga o'tgan, deyishga haqlimiz.

1.3. TUMSHUQ – Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Tog' tizmasi yoki yirik balandliklar, cho'ziq qirlar bag'rida turtib chiqqan, bo'rtib turgan do'nglik tumshuq deb ataladi [O'TIL-5, 4, 189]. T.Nafasov o'z lug'atida *tumshuq* so'zi asosida shakllangan *Tumshuqtog'*, *Qiziltumshuq*, *Oqtumshuq*, *Yuqoritumshuq*, *Kichiktumshuq*, *Mergantumshuq*, *Aylanatumshuq*, *O'rtatumshuq* singari bir qancha joy nomlarini keltiradi hamda *tumshuq* so'zi geografik terminlik funktsiyasi bilan bir qator turkiy tillarda ham faol qo'llanishini ta'kidlaydi [T.Nafasov, 179].

1.4. CHUYUT – Bu qishloq nomi O'zbek urug'laridan birining nomidan olingan, shunga ko'ra etnonim keyinchalik oykonimga aylangan, deyish mumkin. T.Nafasovning kuzatishlariga qaraganda, chuyutlar kenagas, uyshun qabilalari

tarkibida bo'lgan [T.Nafasov, 212]. Z.Ziyotovning ma'lumotlariga ko'ra, *chuyut* etnonimi *chuyue* etnonimi bilan ham aloqador bo'lib, *chuyue* – eng qadimgi O'rta Osiyo xunlarining qarindoshlari sanaladi¹. S.Qorayev ham *chuyut* so'zini O'zbek urug'laridan birining nomi deb hisoblaydi [S.Qorayev, 152].

1.5. **MO'MIN qishlog'i.** Bu qishloq tumanning Sohibkor qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)ga qarashli kichik bir joy nomi hisoblanadi. Bu arabcha so'z e'tiqod qiluvchi, Ollohning borligiga iqror bo'lgan kishi, yuvosh, beozor, muloyim ma'nolarini bildiradi [O'TIL-5, 2, 569]. Shu asosda bu qishloq nomi Ollohgga itoat qiluvchi, beozor kishilar yashaydigan joy, maskan ma'nosini ifodalagan, degan xulosaga kelish mumkin.

1.6. **CHANGAL** – Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. *Changal* forscha so'z bo'lib, tikanli butalar, o'simliklar ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 4, 454]. B.O'rinboyevning lug'atida qayd etilgan ma'lumotlarga qaraganda, daryo bo'ylarida, ayniqsa uning qayir va terassalaridagi o'tish qiyin bo'lgan butazor *changal* deyiladi. Shu o'zak asosida hosil qilingan Changali bolo, Changali poyon toponimlarining izohi ham shu asosda aniqlanadi [B.O'rinboyev, 212].

1.7. **TO'QAY** – tumandagi kichik qishloqlardan biri hisoblanadi. Aslida *to'qay* umumturkiy so'z bo'lib, qamish, changal va shu kabi o'simliklar o'sib yotgan, odatda, zaxkash er ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 4, 251]. B.O'rinboyev bu qishloq nomini quyidagicha izohlaydi: To'qay – qamish bosib yotgan zax yoki botqoq er; qamishzor; quyuq chakalakzor; quyuq, zich o'sgan narsa. To'qay – qamishzorlar o'rnida bunyod etilgan qishloq [B.O'rinboyev, 191].

1.8. **MO'G'OL // MUG'OL** - Bulung'ur tumanidagi qishloqdan biri. Bu toponim *Mug'ol* shaklida ham talaffuz qilinadi. T.Nafasov bu so'zni *mug'ol* - *mo'g'al* - *mo'g'ul* - *mug'ul* kabi fonetik o'zgarishlarga uchragan, qadimgi turkiy qabilalardan biri deb hisoblaydi [T.Nafasov, 123]. Z.Ziyotov ham *mug'ol*ni o'zbeklarning yuz, qirg'izlarning avat qabilalari tarkibidagi urug' nomi deb hisoblaydi¹. “Zominning til qomusi”da *Mug'al* // *Mug'ol* toponimi quyidagicha izohlangan: “o'n ikki otalik xitoyizining bir tarmog'i bo'lgan etnos nomi. Ayni

vaqtda shu urug' vakillari yashaydigan qishloq nomi ham. *Mug'ol* qishlog'i *Zomin* shahri bilan *Achchi* qishlog'i o'rtasida joylashgan"¹. S.Qorayev esa *mug'ol* // *mug'on* tarkibidagi *mug'* ni "otashparast", arabcha –on // -an affiksini esa –lar ko'plik qo'shimchasi ma'nosini ifodalashini ta'kidlab, *mug'ol* // *mug'on* – otashparastlar yashaydigan joy (qishloq), deb izohlaydi [S.Qorayev, 80].

1.9. **QUM** - Bulung'ur tumanidagi qishloqdan biri. Aslida *qum* umumturkiy so'z bo'lib, bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 5, 376]. B.O'rinboyev lug'atidagi ma'lumotlarga ko'ra, qattiq minerallarning, asosan kvartsning sochiluvchan mayda donalari va ularning to'plami – Qumdir. Qum bilan qoplangan joy, qumloq ma'nolariga monand joy nomlari boshqa tumanlarda ham mavjud [B.O'rinboyev, 218]. Masalan, T.Nafasovning ma'lumotlariga qaraganda, birgina Qashqadaryo viloyatida birinchi komponenti *qum* leksemasi yordamida shakllangan *Qumba-qirchi*, *Qumdaryo*, *Qumzor*, *Qumota*, *Qumoq*, *Qumchiyal*, *Qumqal'a*, *Qumqishloq*, *Qumqo'rg'on* singari toponimlar uchraydi [T.Nafasov, 259-250].

1.10. **ROVOT // ROBOT** - Bulung'ur tumanidagi qishloqdan biri. B.O'rinboev lug'atida ta'kidlanishicha, asli arabcha *rabot* – "karvonsaroy – musofirxona, shahar devori, shaharning tashqi qismi; chegara posti, istehkom, qo'rg'on" ma'nolarini bildiradi [B.O'rinboyev, 158-159]. Alisher Navoiy asarlarida *rabot* so'zi *karvonsaroy*, *musofirxona* ma'nosida qo'llangan [NATIL, 3, 590]. O'rta Osiyo hududida *rabot*lar shahar tashqarisida qurilgan. X-XV asrlarda esa yirik aholi punktlari yonida, bozor atrofida va savdo yo'llaridagi bekatlarda qurilgan. XIX asrga kelib *ravot* // *rabot*lar to'rtburchak shaklida qurilgan, bitta darvozasi bo'lgan qo'rg'onlar *ravot* // *rabot* deb atalgan. Shunga ko'ra *ravot* // *rabot* so'zining qo'rg'on ma'nosi ham bo'lgan, deyish mumkin. T.Nafasov *ravot* // *rabot* so'zi asosida shakllangan *Rabotak*, *Ravotguzar*, *Ravotxo'ja* singari joy nomlarini ham qayd qiladi [T.Nafasov, 159].

2. Bulung'ur tumanidagi o'zak +o'zak shaklidagi toponimlar.

Ma`lumki, toponimlar geografik xaritalar va planetalarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ko'pgina toponimlar qonuniy hujjatlarda, hukumat qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlarida, transport va aloqa, axborot-kommunikatsiya ishlarida, xilma-xil ma'lumotnomalarda, ilmiy-texnik, ta'limiy axborotga oid va boshqa bir qancha nashrlarda ko'plab uchraydi.

Geografik nomlarni nuqsonsiz to'g'ri yozish umumiy imloviy savodxonlikning uzviy bir sanaladi.

Geografik nom-toponim ham so'z, lekin biron ob'ektni ifodalaydigan atoqli ot. O'zbekiston hududidagi barcha geografik nomlar O'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi.

O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlar (turdosh otlar)dan iborat geografik nomlar qo'shib yoziladi. Bunday holat Bulung'ur tumanidagi ikki o'zakli qo'shma toponimlar imlosi uchun ham xarakterlidir. Tumandagi ikki o'zakli toponimlarni struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin.

2.1. Ot+ot strukturali toponimlar. Bunday guruhga tumandagi *Jarqishloq, Alqartepa // Olqartepa, Chambiltepa, Go'shto'p, Kultepa, Polvonariq, Mirzaboshi, Gulbuloq, Parmontepa, Xo'jaqo'rg'on, Xo'jaqishloq* kabi toponimlar kiradi.

2.2. Sifat+ot strukturali toponimlar. Tumandagi *Yangi qishloq, Katta quyonchi, Katta jonxo'roz, Yangi erganakli, Oqariq, O'rtabuz, Yangi qo'rg'on, Katta paxtaboshi, Jamonjar, Yomon quyonchi, Oqqovun, Qora kamar, Qora qo'ng'iroq, Qorasuv, Qoratepa* singari bir qancha toponimlar shu guruhga mansubdir.

2.3. Sifat+sifat strukturali toponimlar. Bu guruhga *Yangi qora* singari toponimlar kiradi.

2.4. Son+ot strukturali toponimlar. Bu guruhga tumandagi *Beshkapa, Beshbola, Beshkal, Qirq qishloq, To'qqizboy, Qirq Ahmad, Qirq shodi* singari toponimlarni kiritish mumkin.

2.5. Sifat+son strukturali toponimlar. Bunday strukturali toponim tuman

hududida bitta ekanligi ma`lum bo`ldi: *Yangibesh* kabi.

2.6. **Ot+fe`l strukturali toponimlar.** Bunday strukturali toponim ham tuman hududida ikkita ekanligi ma`lum bo`ldi: *Erteshar, Tuyatortar* kabi.

Endi tumandagi ikki o`zakli, qo`shma toponimlardan ayrimlarining leksik-semantik xususiyatlari haqida so`z yuritmoqchimiz.

2.1. **JARQISHLOQ.** Kildon qishloq fuqarolar yig`iniga qarashli qishloq. Oqar suvlar yumshoq tog` jinslarini o`yib hosil qilgan chuqurlik jar deb ataladi. Jar – chuqurlik, pastlik joyida bunyod etilgan qishloq ma`nosini bildiradi [B.O`rinboyev, 73]. T.Nafasov ham Jarqishloq toponimini jar bo`yidagi aholi punkti deb izohlaydi [T.Nafasov, 72].

2.2. **ALQARTEPA // OLQORTEPA.** Bu toponim *alqar // olqar* va *tepa* qismlaridan iborat. Bu nomda alqar // olqar – “yovvoyi tog` qo`yi” ma`nosini bildiradi, “tepa” esa “boshqa joyga nisbatan yuqori, baland bo`lgan joy” ma`nosiga ega. Shu asosda qishloq nomi – alqari ko`p bo`lgan tepalik ma`nosiga ega [B.O`rinboev, 17].

2.3. **CHAMBILTEPA.** Bulung`ur tumanidagi qishloqlardan biri. Chambil so`zi etnonim, urug` nomi bo`lib, u qanjig`ali va qo`shtamg`ali urug`larining tarkibida mavjuddir¹. Shunga ko`ra, Chambiltepa qishloq nomini etnonimdan o`tgan etnotoponim, deb tushunish lozim.

2.4. **GO`SHTO`P.** Bulung`ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu joy nomi “*go`sh // go`sha*” va “*to`p*” qismlaridan iborat. *Go`sh<go`sha* fors-tojikcha so`z bo`lib, u odamlar nazaridan uzoq er, ovloq joy; burchak, puchmoq; faqirona turar joy; boshpana, kulba ma`nolarini bildiradi. To`p – katta, qo`pol, besunaqay odam demakdir [B.O`rinboev, 57].

2.5. **KULTEPA.** Bulung`ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu joy nomi “*kul*” va “*tepa*” qismlaridan iborat. *Kultepa* – kul tashlanadigan joy. Kulxona, degan ma`noni bildiradi [B.O`rinboev, 105]. S.Qoraev ham *Kultepa* toponimini “kul tashlanadigan joy, kulxona” deb izohlaydi [S.Qoraev, 68]. “Zominning til qomusi” asarida *Kultuba* toponimi *suloqli* urug`iga mansub kishilar yashaydigan

joy, deb izohlangan¹. Lekin T.Nafasov *Kulli*, *Kullisoy* toponimlariga izoh berar ekan, “kul // kulla” soʻzini tojik tilidan olingan, togʻning baland joyi, choʻqqisi, degan maʼnoda qoʻllanishini qayd qiladi [T.Nafasov, 101]. Bizningcha, *Kultepa* toponimi tarkibidagi “kul”ning *Kulli* yoki *Kullisoy* dagi “kulla” soʻziga unchalik aloqasi boʻlmasa kerak.

2.6. **POLVONARIQ.** Bulungʻur tumanidagi ariqlardan biri. Bu gidronimning izohi lugʻatlarda mavjud emas. S.Qorayev *Polvontosh* toponimini izohlar ekan, uning ikki qismdan iboratligini, polvonlarga koʻrata oladigan palaxsa tosh polvontosh deyilishini taʼkidlaydi [S.Qoraev, 100]. SHunga asoslanib, iz ham polvonlar tomonidan qazilgan ariq nomi *Polvonariq* deb nomlangan boʻlsa kerak, deb tamin qilishimiz mumkin.

2.7. **MIRZABOSHI.** Bulungʻur tumanidagi qishloqlardan biri. B.Oʻrinboyev bu toponimni oʻtmishdagi mansab nomlaridan Oʻzbek xonliklarida kotibiyat boshligʻi – Mirzaboshi bilan bogʻlab izohlashga intiladi [B.Oʻrinboyev, 120].

2.8. **GULBULOQ.** Bulungʻur tumanidagi katta qishloqlardan biri. Bu toponimning ham izohi lugʻatlarda qayd etilmagan. S.Qoraev *Gumbuloq* toponimini izohlar ekan, uning maʼnosini “gum” – oʻpqon, chuqur soʻzlari bilan bogʻlaydi [S.Qoraev, 44]. Shunga asoslanib, Gulbuloq toponimi “gul” va “buloq” soʻzlarining maʼnosidan kelib chiqadi, deyish mumkin. *Gul* – atirgul va umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, oʻzi oʻsadigan gulli oʻsimliklar, chechaklar [OʻTIL-5, 1, 516]. *Buloq* – er ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma [OʻTIL-5, 1, 370]. Shunga asoslanib, *Gulbuloq* – chashma yonida, gullar bilan oʻralgan joyda barpo etilgan qishloq (maskan) degan maʼnoni bildiradi.

2.9. **PARMONTEPA.** Bulungʻur tumanidagi katta qishloqlardan biri. B.Oʻrinboevning qayd qilishicha, toponimning birinchi qismi *farmon* keyinchalik talaffuzda *parmonga* aylangan. Bu soʻz fors-tojikcha boʻlib, u “biror ishning bajarilishi haqida berilgan buyruq, topshiriq, koʻrsatma; davlat boshligʻining qonun

kuchiga ega bo'lgan buyrug'i, farmoyishi" ma'nosidadir. Farmontepa // Parmontepa – hokimiyat Oliy organi boshlig'i, hokimning buyrug'i asosida bunyod etilgan tepa demakdir [B.O'rinboev, 199].

Qishloq aholisi orasida tarqalgan rivoyatlarga qaraganda, *Farmon* // *Parmon* degan kishi boshchiligida barpo etilgan istehkom, tepa yonidagi qishloq shu kishining nomi bilan yuritilgan.

2.10. **XO'JAQO'RG'ON.** Bulung'ur tumanidagi qishloqdan biri. B.O'rinboev bu toponimni *xo'jalar qo'rg'oni, muqaddas qo'rg'on*, deb izohlaydi [B.O'rinboev, 209].

2.11. **XO'JAQISHLOQ** - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponimning izohiga B.O'rinboev quyidagicha yondoshadi: *xo'ja* so'zi forsha xo'jayin, sohib, ijtimoiy tabaqa; etnik atama, arablar naslidan bo'lgan [B.O'rinboev, 209]. T.Nafasov *Xo'ja, Xo'jaqishloq, Xo'jaariq, Xo'jaqo'rg'on* singari toponimlarni umumlashtirib, quyidagicha izohlaydi: "...ba'zi regionlarda *xo'ja* so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhining nomi bo'lib, qolgan. *Xo'ja* so'zi dastlab kishi ismiga qo'shib aytilgan... Ijtimoiy tabaqani anglatuvchi so'zdan kishi ismi, undan joy nomlari paydo bo'lgan" [T.Nafasov, 196-197]. Shu asosda bu joy nomini *xo'jalar* yashaydigan maskan deb izohlash mumkin.

3. Bulung'ur tumanidagi sifat+ot strukturali toponimlar.

3.1. **YANGI QISHLOQ.** Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. B.O'rinboev bu toponimni ilgari qishloq bo'lmagan joyda paydo bo'lgan yangi axoli yashash punkti deb izohlaydi [B.O'rinboev, 240].

3.2. **KATTA QUYINCHI.** Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. B.O'rinboevning izohiga ko'ra, *quyin* - *quyun-quyun-qo'ng'irotlar* urug'ining qanjig'ali bo'limiga qarashli 14 urug'ning biri. Bunday urug'lar qo'shtamg'alilarning kal urug'i tarkibida, qoraqalpoqlarda, boshqirdlarda ham mavjud [B.O'rinboev, 99]. Shunga asoslanib, bu qishloq nomi etnonimdan etnooykonimga o'tgan, degan xulosaga kelish mumkin.

3.3. **KATTA JONXO‘ROZ.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim *katta*+ *jon* +*xo‘roz* qismlaridan iborat. *Jom*<*jon* aslida so‘g‘dcha bo‘lib, u *kanal*, *buloq*, *suv manbai* ma`nosini bildiradi. *Xaroz*>*xurus*>*xo‘roz* esa - eshak, tuya, ot kabilar kuchi bilan harakatlanadigan chig‘ir (charx) suv inshooti [B.O‘rinboev, 96]. Bundan ko‘rinadiki, bu qishloq nomi aslida suv inshooti (ariq) nomi (gidronim) bo‘lgan, shu suv inshoota yonida barpo etilgan aholi yashash punkti keyinchalik shu gidronim bilan atalgan. Shunga ko‘ra bu qishloq nomini gidrooykonim, deb atash mumkin.

3.4. **YANGI ERGANAKLI.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim tarkibidagi *erganak* so‘zining ma`nosi “katak” demakdir. Erganakli O‘zbek urug‘laridan birining nomi, ya`ni etnonimdir [B.O‘rinboev, 240]. SHunga ko‘ra, Yangi erganakli – etnooykonim, degan xulosaga kelish mumkin.

3.5. **OQARIQ.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. S.qoraevning ma`lumotlariga ko‘ra, *Oqsuv*, *Oqariq* kabi toponimlar va gidronimlar O‘rta Osiyo hududida keng tarqalgan. Umuman muzlik suvlari ko‘pirib, ayqirib oqadigan ariq yoki kanal *Oqsuv*, *Oqariq* deyiladi [S.Qoraev, 94]. Shu suv inshooti yonida barpo bo‘lgan qishloq ham keyinchalik shu nom bilan atalgan.

3.6. **O‘RTABUZ.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim izohi lug‘atlarda qayd qilinmagan. Z.Ziyotov O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari tarkibida *buz*, *buzak* urug‘lari mavjudligini qayd qiladi¹. Shunga asoslanib, bu joy nomini *buz* urug‘i vakillari turli joylardan ko‘chib kelib, o‘rtada barpo etgan joy, qishloq deb izohlash mumkin.

3.7. **YANGIQO‘RG‘ON.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Joy nomlari tarkibida belgi bildiruvchi so‘zlar (*yangi*, *katta* kabilar) asosida qishloq nomi yasash keng tarqalgan bo‘lib, u dehqonchilik madaniyatining yuksalishi, qo‘riq erlarning o‘zlashtirilishi, yangi joylarda uy-joylar barpo etish bilan bog‘liq jarayonni o‘zida aks ettiradi. Yangiqo‘rg‘on – yangi joyda tashkil bo‘lgan qishloq ma`nosini bildiradi [B.O‘rinboev, 238].

3.8. **KATTA PAXTABOSHI.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu

toponim uch qismdan tashkil topgan: katta+paxta+boshi. Bu toponimni B.O‘rinboev quyidagicha izohlaydi: yangi er o‘zlashtirilib, paxta ekilgan dalaning boshida bunyod etilgan katta qishloq [B.O‘rinboev, 97].

3.9. **JAMONJAR.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Z.Ziyotov *jaman* // *jamon* so‘zini urug‘ nomi, etnonim deb hisoblaydi¹. B.O‘rinboev ham *yomon* // *jamon* so‘zini saroy qabilasiga mansub urug‘ nomlaridan biri deb talqin qiladi [B.O‘rinboev, 72]. Shu asosda *Jamonjar* toponimini *jamon* // *jomon* urug‘i vakillari yashaydigan, jar yonida barpo etilgan qishloq deb izohlash mumkin.

3.10. **YOMON QUYONCHI.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. B.O‘rinboevning fikricha, qoraqalpoq qiyatlarining tarkibidagi qo‘ldovlilar urug‘ining *jomon quyonchi* shoxobchasi bor [B.O‘rinboev, 69]. Shunga ko‘ra, *Yomonquyonchi* toponimini xuddi shunday urug‘ vakillari yashaydigan, ular tomonidan barpo etilgan qishloq deb izohlash mumkin.

3.11. **OQQOVUN.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. B.O‘rinboev bu toponimni quyidagicha izohlaydi: O‘zbek urug‘lari tarkibida *qovchin* urug‘i mavjud. U og‘zaki so‘zlashuvda *Qovunchi* shaklida toponimga aylangan. Toponimning ikkinchi qismi *qovchin* >*qovunchi* >*qovun* tarzidagi semantik taraqqiyot yo‘lini yo‘lni bosib o‘tgan [B.O‘rinboev, 148]. Shunga binoan, bu toponimni shundayizoqlasa bo‘ladi: *Oqqovun* – qovchin urug‘i vakillari yashaydigan qishloq, aholi yashash punkti. S.Qorayev ham bu qishloq nomini aslida dastlab *Oqqovchin* bo‘lgan, keyinchalik *Oqqovunchi* shaklini olgan, bora-bora uning tarkibidagi –chi affiksi tushib qolgan, deb hisoblaydi [S.Qorayev, 96].

3.12. **QORA KAMAR.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. T.Nafasovning ma‘lumotlariga ko‘ra, *kamar* – tevaragi qir, qirsimon balandlik bilan o‘ralgan yarim halqa shaklidagi botiq, tokchasimon joy, xalqoblik [T.Nafasov, 251]. Shunga binoan *qorakamar* – tevaragi tepasimon yolg‘iz do‘ngliklar bilan o‘ralgan kamar yonida barpo etilgan qishloq ma‘nosini ifodalaydi, deyish mumkin.

3.13. **QORA QO‘NG‘IROT.** Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri.

T.Nafasovning fikricha, qo'ng'irotlarning voxtang'ali bo'limiga qarashli 16 urug'ning biri *qoraqo'ng'irot* deb nomlanadi [T.Nafasov, 257]. Xuddi shu fikrni B.O'rinboev ham qo'llab-quvvatlaydi [B.O'rinboev, 265]. Shunga binoan *Qoraqo'ng'irot* toponimini dastlab etnonim bo'lgan, undan keyin etnooykonimga aylangan, degan xulosaga kelish mumkin.

3.14. **QORASUV.** Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim jilg'a, daryo, qishloq ma'nolarini bildiradi. Dastlab u suv inshooti nomi – gidronim bo'lgan, undan keyinchalik qishloq nomi yuzaga kelgan. Gidronimiyada *qora* so'zi – er osti, sizot suv ma'nolarini bildiradi [T.Nafasov, 253]. Shunga ko'ra *Qorasuv*ni yilning barcha fasllarida bir xil miqdorda suv oqadigan suv inshooti nomi deb izohlash mumkin.

3.15. **QORAARIQ.** Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. SHunisi e'tiborliki, *Qoraariq* toponimining izohi ham xuddi yuqoridagi qorasuvning izohiga o'xshaydi. Buni B.O'rinboevning mazkur toponimga bergan quyidagi izohidan ham bilib olish mumkin: *qora* – er osti sizot suvlari yig'indisi. *Qoraariq* – sizot suvlari yig'ilib oqadigan ariq va shu ariq yonidagi qishloq nomi [B.O'rinboev, 257].

3.16. **QORATEPA.** Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu o'rinda shuni inobatga olish lozimki, *qora* so'zi *tepa* so'zi bilan birikkanda rang ma'nosini bildirmaydi, balki tepalarning tik va en ko'lamini ifodalaydi. Buni quyidagi toponimlarni o'zaro qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin: *Oqtepa* – balandroq joydagi tepa, *Qoratepa* – pastroq joydagi tepa [B.O'rinboev, 261]. Shundan kelib chiqib, *Qoratepa* aholi punktlaridan yiroqda, tog' etaklarida bunyod etilgan qishloq nomi deb izohlash mumkin. Darhaqiqat, Bulung'ur tumanidagi *Qoratepa* qishlog'i *Oqtepa* qishlog'idan pastda, tog' bag'irlari yonida joylashgan.

4. Bulung'ur tumanidagi sifat + sifat strukturali toponimlar.

Bunday strukturaga ega bo'lgan toponimlarga tuman hududida faqat bitta ekanligi ma'lum bo'ldi:

4.1. **YANGI QORA.** Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qirq qabilasining bir

tarmog'i *qora* (*qoracha*) deb ataladi [S.Qoraev, 174]. Xuddi shu fikrni B.O'rinboev ham qo'llab-quvvatlaydi [B.O'rinboev, 240]. Shularga asoslanib, Bulung'urdagi *Yangi qora* qishlog'i nomini *qora* urug'iga tegishli kishilarning yangi qishlog'i, deb izohlash mumkin.

5. Bulung'ur tumanidagi son + ot strukturali toponimlar.

Bunday ikki komponentli, qo'shma toponimlar tuman hududida unchalik ko'p emas. Bunday strukturali toponimlarga quyidagilarni kiritish mumkin.

5.1. **BESHKAPA.** Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bu toponimning tarkibi *bash* va *kapa* qismlaridan iborat. *Kapa* - vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o't-o'lanlar bilan o'rab quriladigan xona, yozlik uy, chayla [O'TIL-5, 2, 315]. Shunga asoslanib, Bulung'urdagi *Beshkapa* toponimini *bash* vaqtinchalik uy, chayla negizida qurilgan, asoslangan qishloq deb izohlash mumkin. B.O'rinboev ham bu toponimni shunga yaqin ma'noda izohlaydi [B.O'rinboev, 31].

5.2. **BESHBOLA.** Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bu toponim tarkibidagi "*bash*" va "*bola*" komponentlarining izohi, talqini toponimik adabiyotlarda juda ko'p ko'p tarqalgan. Masalan, T.Nafasovning talqiniga ko'ra, qo'ng'irotlarning oyinni bo'limiga xos urug'lardan biri beshbola deb nomlanadi [T.Nafasov, 31]. Etnograf olim K.Shoniyozovning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, XIX asr oxirida Zarafshon vodiysi qoraqalpoqlarida ham, sariqqipchoqlarning oltiota qabilasi tarkibida ham beshbola urug'i bo'lgan¹. S.Qoraev ham qo'ng'irot qabilasining kichik bir urug'i beshbola deb atalishini ta'kidlaydi [S.Qoraev, 37]. B.O'rinboev ham xuddi shu fikrni qo'llab-quvvatlaydi [B.O'rinboev, 29-30]. Z.Do'simov va X.Egamovlar esa Beshbola toponimini "tepa oldidagi qishloq", deb izohlaydilar¹. Shularga asoslanib, Bulung'urdagi *Beshbola* qishlog'ining nomi o'sha aholi punktining etnik tarkibiga nisbat berish asosida hosil bo'lgan, deyish mumkin, ya'ni bu o'rinda etnonim etnooykonimga aylangan.

5.3. **BESHKAL.** Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bu toponim tarkibidagi "*bash*" va "*kal*" komponentlarining izohi, talqini ham juda xilma-xildir. Masalan,

T.Nafasov *beshtkal*ni etnonim deb hisoblaydi [T.Nafasov, 32]. S.Qoraev ham *beshtkal*ni urug' nomi, deb talqin qiladi [S.Qoraev, 37]. "Zominning til qomusi" asarida ta'kidlanishicha, mang'it urug'ining bir bo'lagi *beshtkal* deb atalgan¹. B.O'rinboev ham bu toponimni etnonim bilan aloqador deb hisoblaydi: *Beshtkal* - mang'it va yuzlarning kichik bir urug'i. O'zbek tilida so'zlovchi arablarning bir shoxobchasi *beshtkal* deb ataladi [B.O'rinboev, 33]. Bundan ko'rinadiki, Bulung'urdagi *Beshtkal* qishloq nomi etnonimdan etnooykonimga aylangan.

5.4. QIRQQISHLOQ. Bulung'ur tumanidagi qishloq. S.Qoraevning ta'kidlashicha, *qirq* – 92 bo'vli O'zbek qavmlari tarkibiga kirgan eng yirik qabilalardan biri sanaladi. *Qirqqishloq* esa qirq urug'i vakillari yashaganligi uchun shunday nom olgan [S.Qoraev, 172]. Z.Ziyotov ham *qirq*ning o'zbeklar tarkibidagi katta qabila nomi ekanligini ta'kidlab ko'rsatadi¹. B.o'rinboev ham O'zbek qavmlari tarkibiga kirgan eng yirik qabilalardan biri *qirq* deb nomlanadi, degan fikrni bayon etadi [B.O'rinboev, 254]. SHunga binoan Bulung'urdagi *Qirqqishloq* toponimini etnooykonimga aylangan, deyishimiz mumkin.

5.5. TO'QQIZBOY. Bulung'ur tumanidagi qishloq. Z.Ziyotovning lug'atida qayd qilinishiga ko'ra, *to'quz o'g'uz xalqi* 9 qabiladan iborat bo'lgan: seyanto, uyg'ur, chu, paegu, iunlo, xun, xueye, atye va boshqalar. Ular hozirgi tuva, oltoy, telengut, uyg'ur xalqlarining ilk ajdodlari sanaladi¹. B.O'rinboevning fikricha, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, boshqirdlar tarkibida *to'g'iz // to'quz* urug'i mavjud [B.O'rinboev, 192]. SHu fikrlarga asoslanib, Bulung'urdagi *To'qqizboy* qishloq nomini etnooykonim, deyishimiz mumkin.

5.6. QIRQ AHMAD. Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. B.O'rinboevning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloq *qirq* urug'i vakillari yashagani uchun shunday nomlangan [B.O'rinboev, 254-255]. Shunga binoan Bulung'urdagi *Qirq Ahmad* qishloq nomini etnoantropooykonim, deyish maqsadga muvofiqdir.

5.7. QIRQ SHODI. Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Qishloq nomi haqida ma'lumotlarni lug'atlardan topib bo'lmadi. Bu qishloq nomining grammatik strukturasi ham yuqoridagi toponim singari son+atoqli ot qismlaridan

iborat. Qishloqqa nom qo'yishda u erda qirq urug'i vakillari yashagani, uni barpo qilishda Shodi ismli amaldor yoki qishloq oqsoqoli juda katta xizmat qizmat qilgani inobatga olingan bo'lsa kerak.

6. Bulung'ur tumanidagi sifat +son strukturali toponimlar.

Bundagi grammatik strukturali toponimlar biz to'plagan materiallar orasida faqat bitta bo'lib, u *Yangibesh* deb nomlanadi.

6.1. YANGIBESH // YANGIBET. Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. *Bet* – odam boshining old qismi, old tomoni; yuz; aft [O'TIL-5, 1, 237]. B.O'rinboevning ta'kiddashicha, ...biror narsaning sirti; sahifa; chet; qirg'oq, sohil; tig', dam [B.O'rinboev, 237]. Shunga binoan, Bulung'urdagi Yangibet qishlog'ini betkay tomondagi yangi qishloq, deb izohlashimiz mumkin.

7. Bulung'ur tumanidagi ot +fe'l strukturali toponimlar.

Bundagi grammatik strukturali toponimlar biz to'plagan materiallar orasida ikkita bo'lib, ular *Yerteshar*, *Tuyatortar* deb nomlanadi.

7.1. YERTESHAR. Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponimda *er* – ekin maydoni, joy, makon, masofa; a'zo va narsaning qismi, bo'lagi [O'TIL-5, 2, 14]. *Teshar* – parmalab, o'yib, kuydirib yoki boshqa yo'l bilan teshish ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 4, 82]. Shunga asoslanib, B.O'rinboev bu qishloq ma'nosini o'yish yo'li bilan hosil qilingan teshiklar yonidagi ekin maydoni yoki joy, deb izohlaydi [B.O'rinboev, 66].

7.2. TUYATORTAR. Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri va kanal nomi. T.Nafasovning ma'lumotlariga qaraganda, bu qishloq ichidan oqadigan ariqqa suv daryodan chig'irliq orqali chiqarilgan. Chig'ir esa tuya orqali harakatga keltirilib, aylantirilgan. Chig'irga o'rnatilgan suv idishlari ancha yirik bo'lgan, shuning uchun u katta kuch bilan aylantirilgan. Chig'ir harakati tuya kuchi bilan amalga oshganligi tufayli ariqqa va uning atrofidagi qishloqqa shunday nom berilgan [T.Nafasov, 181].

8. Bulung'ur tumanidagi o'zak+so'z yasovchi affiks strukturali toponimlar.

Bulung'ur tumanida so'z yasovchi qo'shimchalar asosida hosil bo'lgan qishloq nomlari muayyan qonuniyatga asoslangan holda paydo bo'lgan. Toponim yasashga xizmat qiluvchi bunday so'z yasovchi qo'shimchalarning eng unumdorlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

8.1. –li affiksi. Bu affiks toponimlar yasashda juda faol ishtirok etadi. Masalan: *Bolg'a+li, Kapa+li, Katta o'roq+li, Ochamay+li, Past qo'shtamg'a+li, Yuqori qo'shtamg'a+li, Sario'roq+li, Tortuv+li, Tuyoq+li, Erganak+li, Yangi erganak+li, O'roq+li* kabilar.

8.2. –kor affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Lalmi+kor, Sohib+kor* kabi toponimlar kiradi.

8.3. –zor affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Gul+zor, Do'lana+zor, Olma+zor, O'rik+zor, Meva+zor* kabi toponimlar kiradi.

8.4. –goh affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Sayl+goh* kabi toponimlar kiradi.

8.5. –bon affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Bog'+bon* kabi toponimlar kiradi.

8.6. –obod affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Mehnat+obod, Yangi+obod, Yanus+obod, Do'st+obod* kabi toponimlar kiradi.

8.7. –ma affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Ko'tar+ma, Kazar+ma* kabi toponimlar kiradi.

8.8. –iston affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Gul+iston* kabi toponimlar kiradi.

8.9. –lik affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Bir+lik, Tinch+lik, Mustaqil+lik* kabi toponimlar kiradi.

8.10. –don affiksi. Bu affiks yordamida yasalgan toponimlar qatoriga *Kil+don, Past kil+don* kabi toponimlar kiradi.

8.11. –chi affiksi. Bu affiks yordamida hosil qilingan yasama toponimlarga *Oqtosh quyon+chi, Qarap+chi, Katta qo'yin+chi* kabilar kiradi.

9. Tumandagi o'zak+o'zak+o'zak+o'zak strukturali toponimlar. Bunday

strukturaga ega bo'lgan toponimlar tuman hududida bitta bo'lib, unga *Oq+tom besh+bola qishlog'i* kiradi.

10. Bulung'ur tumanidagi o'zak+o'zak+affiks strukturali toponimlar.

Bunday strukturaga ega bo'lgan toponimlarga tuman hududidagi *Katta xo'ja+bachcha, Soy xo'ja+bachcha* kabi qishloq nomlari kiradi..

Shunday qilib, Bulung'ur tumanidagi ellikdan ortiq toponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu tumanda juda qadimdan turkiy xalqlar yashagan, shunga ko'ra tuman hududida mavjud toponimlarning asosiy qismi umumturkiy xarakterga egadir. Malakaviy bitiruv ishining keyingi bobida Bulung'ur tumanidagi ayrim toponimlarning etimologiyasi, kelib chiqishi haqida so'z yuritmoqchimiz To'g'ri, u yoki bu toponimning kelib chiqishini, etimologiyasini aniqlash uchun uning komponent tarkibini, grammatik strukturasini to'g'ri aniqlash, yaxshi bilish talab qilinadi. Shunga ko'ra, bizning toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlarimiz ana shu toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda grammatik strukturasini, tuzilishi haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi.

II. BULUNG'UR TUMANI TOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Ma'lumki, atoqli otlarni amaliy va nazariy jihatdan o'rganib, ilmiy asoslarda

tahlil va talqin etishning fan, xalq va qadim tarix oldida o'ziga xos bo'lgan nazariy, amaliy hamda ma'rifiy ahamiyati kattadir. Chunki bugungi bilimli inson eng avvalo, mavjud joy nomlarini yaxshi bilishi, izohli va etimologik tahlil tamoyillari asosida ularni to'g'ri talqin qila olishi lozim bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan mazmunini tushunish qiyinlashgan yoki semantikasini anglash mumkin bo'lmagan joy nomlarini etimologik jihatdan tahlil etishda til, tarix, geografiya, geologiya, etnografiya kabi ko'pgina fanlarning dalillari ham muxim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda toponimlarni etimologik jihatdan ilmiy-nazariy tadqiq etishning tamoyillari belgilab olinadi¹. Biz ham Bulung'ur tumani hududidan to'plangan ayrim toponimlarni etimologik jihatdan tahlil qilishga intilamiz. Etimologik tahlilni o'zak va so'z yasovchi affiks strukturasiga ega bo'lgan bir o'zakli, sodda toponimlardan boshlashni o'rinli deb o'ylaymiz.

1. **ALAMLI** – Bulung'ur tumanidagi qishloq. Alam arabcha so'z bo'lib, u “bayroq, tug‘, nishon, alomat, belgi” ma'nosi bilan aloqadordir [O'TIL-5, 1, 66]. – *li* mavjudlik ma'nosini ifodalovchi qo'shimchadir. *Alamli* “aziz-avliyolar mozori”, “shahid o'lgan kishi ko'milgan joydagi belgi” ma'nolarini bildiradi [B.O'rinboev, 16].

2. **BARLOS** - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. “Barlos” so'zi olimlardan tomonidan “qadimgi turkiy qabilalaridan biri”, “mo'g'ullarning barlos qabilasi”, mo'g'ulcha “semiz, kuchli”, “turkiycha lashkarboshi, yo'lboshchi, botir, jangchi” ma'nolarida qo'llanilganligi ta'kidlanadi. To'g'ri, “*barlos*” so'zining lug'aviy ma'nosida ham yuqoridagi ma'nolar bor. Masalan, S.Qoraevning fikricha, barlos – O'zbek millati tarkibiga kirgan qabilalardan biri [S.Qoraev, 33]. T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, qatag'onliklar o'zlarini barlos va arlot (allot) urug'larining bir urug'ga birlashuvidan kelib chiqqan, deb hisoblashadi [T.Nafasov, 26]. Barlos etnonimining birinchi qismi *bar* mo'g'ulcha yo'lbars, sher, arslon, burgut, lashkarboshi demak. So'nggi qismi –*ilos*, –*ulas*, –*los*, –*las*, –*ga*, –*gut*, –*kut*, –*qut*, –*lagdir*¹.

O'zbeklardagi *barkut*, mo'g'ullardagi *barga*, *barlag* degan qabilalar nomlari

ham yuqoridagi sharxlangan ma`no bilan bog`liq. Hozirgi yoqut tilida *bar kul* “burgut, yo`lbars” ma`nosini bildiradi. *Barlos* tarixan ham yasama so`z bo`lib, u ham yo`lbars, ham burgut ma`nosini bildirgan. Ana shu totem nomidan urug`, qabila nomi yuzaga kelgandir¹.

3. LOYQA - Bulung`ur tumanidagi qishloqlardan biri. Suv va suv olib kelgan jinslardan hosil bo`lgan maydon loyqa deb ataladi [O`TIL-5, 2, 506]. S.Qoraevning mulohazalariga ko`ra, *Bulung`ur* so`zi mo`g`ul tilida *loyqa* ma`nosini bildiradi. Shunga ko`ra *Bulung`ur* va *loyqa* so`zlari adash (sinonim) nomlardir [S.Qoraev, 74]. T.Nafasov *loyqa* so`zini *loyliq* so`zining qisqargan, fonetik o`zgarishga uchragan shakli deb hisoblaydi: yog`in, sel suvlari natijasida hosil bo`lgan xalqob, chuqur joy – loyliq, loyqa. Dastlab oronim sifatida yuzaga kelgan, so`ng qishloq nomiga ko`chgan [T.Nafasov, 109-110]. Bulung`urdagi qishloq nomini ham shunday semantik jarayon asosida yuzaga kelgan deyish mumkin.

**4. MANG`IT** - Bulung`ur tumanidagi qishloq. *Mang`it* O`zbek urug`laridan birining nomi. Bu urug` o`z navbatida *oq mang`it*, *qora mang`it*, *och mang`it*, *chala mang`it*, *boygundi mang`it*, *temirxo`ja*, *isoboy*, *gaulak*, *ko`sa*, *toz*, *qorabayir*, *baqirchi*, *kula tamg`ali*, *mang`itqozoq*, *o`n ikki cho`qay*, *galabotir*, *beshkal*, *chobakchak*, *o`z*, *uvolay* kabi tarmoqlarga bo`lingan¹. A.Ishaev *mang`it* etnonimining etimologiyasini quyidagicha izohlagan edi: mang+ot – minglar. Mang`it – eng qadimiy nom. –t affiksi oltoy tilida jamlik ma`nosini bildiradi. O`zbek xalqi tarkibida *ming* qabilasi ham mavjud. Garchi *mang`it* va *ming* so`zlari ikki qabila nomi, ikki mustaqil etnonim bo`lsa ham, ularning ma`no va shakllanish tamoyillari bir xil, ya`ni ular aholining miqdoriga nisbatan qo`llangan¹. S.Qorayev ham *mang`it* so`zini O`zbek millati tarkibiga kiruvchi qabila nomi, etnonim deb hisoblagan edi [S.Qoraev, 76]. Kattaqo`rg`on tumanidagi *Mang`iton*, Urgut tumanidagi *Mang`itobod*, Ishtixon tumanidagi *Mang`ittepa*, Pstdarg`om, Urgut tumanlaridagi *Oqmang`it* nomlari yuqoridagi o`zak asosida hosil bo`lgan [B.O`rinboev, 115-116]. Bu toponimlarning barchasi etnotoponimlar

sanaladi.

5. DOBIL - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. *Dobil* tarixiy eskirgan so'z bo'lib, ot egari qoshiga bog'lab, mahkamlab qo'yib, jang payti yoki to'yda chalinadigan doirasimon musiqa asbobi; dovul [O'TIL-5, 1, 631]. B.O'rinboev esa *dobil* // *dovul* so'zini kuchli emiruvchi bo'ron; ovchilar to'pchi qorovullar yoki harbiylar uchun belgilangan maxsus nog'ora, deb talqin qiladi [B.O'rinboev, 63]. Shu mulohazalarga asoslanib, Bulung'urdagi Dobil qishloq nomini jang payti nog'ora chaluvchilar – dobillar qo'nim topgan joy, deb izohlash mumkin.

6. JUGUTON - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. *Juhut* eskirgan so'z bo'lib, og'zaki so'zlashuvda *jugut* sifatida talaffuz qilinadi, aynan yaxudiy ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 2, 116]. Somiy tillari guruhiga mansub, butun dunyoga keng tarqalgan, kelib chiqishi va dini bir xil bo'lgan guruhlardan iborat xalq *juhud* // *yaxudiy* deb ataladi [O'TIL-5, 5, 131]. Bu toponim tarkibidagi *-on* ko'plik qo'shimchasi o'sha toponimning sharhlangan ma'nosi bilan aloqasi yo'q. Pastqam uylari bir-biriga tutashib ketgan, tor ko'chali bo'lganligi uchun yahudiylar yashaydigan uylarga o'xshatilgan, ana shu o'xshatish asosida qishloqqa nom berilgan [B.O'rinboev, 80]. Lekin .S.Qorayevning Buxorodagi *Jubut* toponimi etimologiyasi haqida bildirgan quyidagi fikriga diqqat qilaylik: *Ju-i but* – “but arig'i” demakdir. Bu nom butparastlik davridan qolgan “yodgorlikdir” [S.Qoraev, 56]. Ana shu izohdan kelib chiqib, Bulung'urdagi toponimni ham eng qadimgi butparastlik davridan qolgan “yodgorlik” deyish mumkindir. Bu hozircha taxmin, xolos.

7. ZERTONG - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim o'tmishda ikki qismdan iborat bo'lgan, uning etimologiyasini B.O'rinboev quyidagicha izohlaydi: *zer<bar-var-far-par* – yuqori, baland; kulba, yurt, ko'chma manzil; joy; qo'rg'on; *tong* – tovon, quyi, etak, masofa jihatdan past tomon [B.O'rinboev, 84]. Shu asosda Bulung'urdagi Zertong toponimini balandlikning quyi tomonidagi qishloq, deb izohlash mumkin.

8. NEBO'SA - Bulung'ur tumanidagi qishloq. S.Qoraevning ta'kidlashicha,

Nebusa – urug‘ tarmog‘i [S.Qoraev, 84]. “Zominning til qomusi” mualliflari bu toponimni quyidagicha izohlashgan: “*Nebuso // Nebusa* Zominning kun botish tomonida joylashgan, shahar bilan ushlab ketgan qishloq nomi. Qishloq nomi ham etnosni ifoda etadi. U 12 ota xitoyizining bir shoxi nomini ianglatib, “ne bo‘lsa?” degan so‘roq ma‘nosidan kelib chiqqan deyishadi¹. B.O‘rinboevning ta‘kidlashicha, qoraqalpqlarning bir urug‘ining shaxobchasi *nebo‘sa* deb atalgan [B.O‘rinboev, 133]. Demak, Bulung‘urdagi *Nebo‘sa* joy nomi etnonimdan oykonimga o‘tgan.

9. BOTBOT - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Bu joy nomini B.O‘rinboev quyidagicha izohlaydi: *Botbot* mo‘g‘ulcha *boom* so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lsa kerak. Chunki *buum-bum* so‘zi mo‘g‘ulcha *buu* fe‘lidan olingan bo‘lib, asl ma‘nosi “yo‘lni to‘smoq, bo‘g‘ib qo‘ymoq”, “dara”, “darband”, “baland va tik tumshuq”, “tor vodi” degan ma‘nolarni ifodalaydi [B.O‘rinboev, 39-40]. Darhaqiqat, Bulung‘ur yaqinidagi *Ilono‘tdi* darasidan o‘tadigan shamol *Botbot* qishlog‘i tarkibida joylashgan tumshuqqa urilib qishloqqa tegmay, Bulung‘ur shahri tomon yo‘naladi.

10. INGICHKA - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Bu so‘z “ko‘ndalang kesimi me‘yoridan kichik” ma‘nosini bildiradi [O‘TIL-5, 2, 207]. Bu so‘z toponimik adabiyotlarda barcha tog‘lik tumanlarda soy, dara, jilg‘a ma‘nosini ham ifodalaydi. Masalan, T.Nafasovning fikricha, *Ingichka* – suv o‘zani (jilg‘a, soy,ko‘l, dara)ning tor va oqim tezligi kuchli bo‘lib, o‘tish qiyin bo‘lgan o‘zani [T.Nafasov, 84]. B.O‘rinboev ham *Ingichka* toponimini xuddi shunday ma‘noda izohlaydi [B.O‘rinboev, 87]. S.Qoraev esa *ingichka // jingichka* so‘zini O‘zbek urug‘laridan birining nomi deb hisoblaydi [S.Qoraev, 60-61]. Bizningcha, Bulung‘urdagi *Ingichka* toponimi suv o‘zanining tor va oqim kuchli bo‘lib, o‘tish qiyin bo‘lgan o‘zani yonida bo‘lgan qishloq, ma‘nosini bildiradi.

11. KILDON - Bulung‘ur tumanidagi eng katta qishloqlardan biri. B.O‘rinboev bu toponimni shunday izohlaydi: tojikcha *kilk>kild* so‘zi – qamish, nay; nayqalam, qalam ma‘nosini bildiradi; *-on* qo‘shimchasi esa o‘rin-joy oti

yasashga xizmat qilgan [B.O‘rinboev, 101]. Shu asosda Bulung‘urdagi *Kildon* joy nomiga – qamishli, qamish o‘sgan joyda barpo etilgan qishloq, deb izoh berish mumkin.

12. LALMIKOR - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. *Lalmikor* – “yog‘in suvidan foydalanib, dehqonchilik qilinadigan; yog‘in suv bilan unadigan, sug‘orilmaydigan” er ma‘nosini bildiradi [O‘TIL-5, 2, 485]. Bu so‘z morfologik jihatdan ikki morfemadan iborat: *lalmi+kor*. T.Nafasov bu toponimni quyidagicha izohlaydi: *Lalmikor* – sug‘orish inshootlari (ariq, kanal, band)dan foydalanmasdan, erdagi nam va tabiiy yog‘inlar yordamida etishtiriladigan dehqonchilik mahsulotlari va dehqonchilik usuli [T.Nafasov, 107]. B.o‘rinboev ham shu toponimni xuddi shunday ma‘noda izohlaydi [B.O‘rinboev, 112]. Aslida qishloq keksalarining ma‘lumotlariga qaraganda, Bulung‘urdagi shu qishloq o‘rnida XX asrning 40-yillarida “Lalmikor” nomli jamoa xo‘jaligi tuzilgan, keyinchalik bu xo‘jalik yiriklashib, aholi ko‘chib kelib o‘rnasha boshlagach, o‘sha joy *Lalmikor* nomli qishloqqa aylangan.

13. SOLIN - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Z.Ziyotovning kuzatishlariga qaraganda, *solin* – yuz qabilasining bir urug‘i. Bu urug‘ *to‘g‘ayto‘bi, jobuvchi-solin, uqodmonto‘bi, kavrok-solin, davlat-solin, uyaz-solin, qirsadoq-solin* degan bir qancha tarmoqlarga bo‘lingan¹. S.Qoraev ham *Solin* toponimini urug‘ nomi – etnonim asosida shakllangan, deb hisoblaydi [S.Qoraev, 113]. B.O‘rinboevning fikricha, O‘zbek qabilalari tarkibida *solin* degan urug‘ bo‘lgan. Solin urug‘i o‘z navbatida ko‘plab shoxobchalarga bo‘lingan [B.O‘rinboev, 170]. Shu fikrlarga asoslanib, Bulung‘urdagi *Solin* qishloq nomini etnonimdan etnooykonimga aylangan, degan xulosaga kelish mumkin.

14. SOHIBKOR - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. *Sohibkor* so‘zi morfologik jihatdan ikki morfema *sohib+kor* dan iborat bo‘lib, genetik asosiga ko‘ra *arabcha+forscha* dir. O‘z ishining ustasi, omilkor bog‘bon kishi *sohibkor* deyiladi [O‘TIL-5, 3, 564]. Xuddi shu fikrni B.o‘rinboev ham tasdiqlaydi [B.O‘rinboev, 171]. Shunga asoslanib, Bulung‘urdagi *Sohibkor* qishlog‘i nomini

sohibkor, omilkor bog‘bonlar bunyod etgan qishloq, deb izohlash mumkin.

15. **SO‘ZOQ** - Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Qadimgi turkiy tilda *so‘zoq* “xalq turadigan joy, manzilgoh” degan ma‘noni bildirgan¹. S.Qoraevning ma‘lumotlariga qaraganda, qozoq, qirg‘iz va O‘zbek xalqlari tarkibida *so‘zoq* urug‘i mavjud [S.Qoraev, 116]. B.O‘rinboev ham xuddi shu fikrni bildiradi [B.O‘rinboev, 173]. Shunga asoslanib, Bulung‘urdagi *So‘zoq* qishlog‘i nomini etnonimdan etnooykonimga aylangan, deyishimiz mumkin.

16. **TEGIRMON** - Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. G‘allani, donni yanchib un qilish – un tortish uchun moslangan qurilma va shunday qurilma o‘rnatilgan joyga *tegirmon* deyiladi [O‘TIL-5, 4, 46]. T.Nafasov *Tegirmontosh*, *Tegirmonxona* toponimlarini izohlar ekan, g‘allani un, yarma qilish uchun mo‘ljallangan doira shaklidagi o‘rtasi teshik, ishqalanadigan tomoni silliq bo‘lgan qo‘sh tosh – tegirmontosh. Ana shu tosh yo‘niladigan, ishlab chiqiladigan joy, deb izohlaydi [T.Nafasov, 175]. B.O‘rinboev ham *Tegirmon* toponimini izohlashda xuddi shunga yaqin fikrni bayon etadi [B.O‘rinboev, 179]. Demak, Bulung‘urdagi *Tegirmon* toponimi shunday qurilmasi mavjud bo‘lgan qishloq nomidir.

17. **QUVVAT** - Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. “Quvvat” so‘zi arabcha bo‘lib, harakat-faoliyatga olib keluvchi qobiliyat; harakatlanish, harakatlantirish qobiliyati, kuch ma‘nolarini bildiradi [O‘TIL-5, 5, 359]. SHu bilan birga S.Qoraevning ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘zbeklarning qipchoq, qirg‘izlarning cherik qabilasi tarkibida *quva (quba)* urug‘i mavjud. So‘zdagi –t qo‘shimchasi chidamlilikni ifodalagan [S.Qoraev, 181]. “Quvvat” so‘zi “biror mavjudotning jismoniy ish yoki harakat qobiliyati, kuch, energiya; bir vaqt ichida bajariladigan ish miqdori; korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari majmui; chidam; moddiy imkoniyat, boylik, qurb, qobiliyat, layoqat; bilim, malaka, dalda, madad”, degan ma‘nolarni bildiradi [B.O‘rinboev, 266]. Demak, Bulung‘urdagi *Quvvat* toponimi chidamli, layoqatli kishilar yashaydigan joy ma‘nosini bildiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

18. **QULCHABIY** - Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponim

morfologik tarkibiga ko'ra *qulcha(n)+biy* morfemalaridan tashkil topgan¹. S.Qoraevning ta'kidlashicha, o'zbeklarning qipchoqsaroy urug'ining bir tarmog'i *qulchan* deb atalgan [S.Qoraev, 183]. B.O'rinboev *Qulchabiy* joy nomi tarkibidagi *biy* so'zini qabilaning boshlig'i, to'rasi; yuqori mansabli kishiga berilgan unvon; oqsoqol, deb hisoblaydi [B.O'rinboev, 265]. Nayman qabilasi tarkibida biya urug'i ham borligini Z.Ziyotov o'z lug'atida ta'kidlab ko'rsatgan edi¹. Shu fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda Bulung'urdagi *Qulchabiy* joy nomini *qulchan* urug'i oqsoqoli bunyod etgan qishloq, deb izohlashimiz mumkin.

Ma'lumki, jamoalar juda katta va juda kichik hududni ham qamrab olishi mumkin. Urug'lar, qabilalar, eng qadimiy jamoalar sanaladi. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan *qabila*, *elat*, *xalq*, *millat* kabi jamoalar etnik birlashmalar, ya'ni etnoslardir.

Qabila arabcha so'z bo'lib, avlod, nasl, urug' ma'nolarini bildiradi. Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Qabila a'zolarini bir-biri bilan qon-qarindosh bo'lgan hamda urug' va boshqa mayda guruhlariga bo'lingan. Qabila a'zolari muayyan birlikka ega umumiy hududda yashagan, iqtisodiy birlikka ega bo'lishgan. Ya'ni jamoa bo'lib ov qilishgan, bir birlariga yordamlashishgan, yagona til (sheva) da gaplashishgan [O'TIL-5, 5, 197]. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida qabilalar birlashib elat hosil qiladi. Elat kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligidir [O'TIL-5, 5, 30].

Millat - kishilarning barqaror tarixiy birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir [O'TIL-5, 2, 593]. Millat qon-qardosh va qarindosh bo'lmagan qabila, irq va xalqlardan shakllanadi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatning yozma adabiy tili va halq og'zaki tilining yaqinlashishi negizida yagona milliy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Shevalar o'rnini asta-sekin milliy til egallay boshlaydi.

O'zbek elati turli urug' va qabilalardan ilk o'rta asrlarda shakllana boshlagan. Oktyabr to'ntarilishidan oldingi o'zbeklar tarkibiga kirgan *barlos*,

nayman, saroy, ko'ng'iroq kabi urug'-qabilalar o'z navbatida, bir qancha to'p, tira shoh, avlod, qavm kabi tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir bo'limning o'z nomi bor. *To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm*, kabi tarmoqlarga bo'linadi. (Ana shu har bir bo'limning) millat nomlari etnonimlar deyiladi¹. Etnonim yunoncha **etnos** - "xalq" va **onim** - "nom" so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmuyi etnonimiya, etnonimlarni o'rganadigan fan etnonimika deyiladi¹.

Etnonimlar etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali unchalik yaxshi o'rganilmagan soxasi bo'lib, xalqlar, millatlar etnogenezini yanada chuqurroq taxlil qilishga katta yordam beradi. Ana shunday tahlilda bizga joy nomlari, aniqrog'i, etnotoponimlar, etnooykonimlar muhim material manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi tosh asri bir ota onadan paydo bo'lgan kishilar birgalashib yashashgan. O'sha ajdoddan tarqalgan avlod vakillari bir urug'ni tashkil etgan. Urug'-urug' bo'lib yashagan jamoalar qaysi urug'ga mansubligi bilan bir-biridan farq qilgan. Urug'lar o'z o'rnida yana mayda bo'laklarga farq qilgan. Urug'lar o'z o'rnida yana mayda bo'laklarga bo'lingan va ular o'z nomi bilan atalgan. Har bir qavm o'z tarixiga ega bo'lgan.

Qavm arabcha so'z bo'lib, bir avloddan tarqalgan, o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasidir [O'TIL-5, 5, 201]. Xalqimiz jamoani qavmga ajratishda uni turli xil nomlar bilan ataydi, ya'ni ota (o'zak), toifa, urug', to'p, to'da, avlod kabilar. Urug'lar o'zaro yaqinligi, bir-biriga munosabatlari jihatidan birlashib, qabilani tashkil etgan. Qabila tarkibida esa bir necha urug'lar bo'lgan¹.

Ma'lumki, xalqimizning xotirasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan moddiy dalillardan biri – qishloq nomlari, ya'ni toponimlardir. Har kim o'zi yashab to'rgan joy nomining ma'nosiga qiziqadi. SHuningdek o'z ismi, urug'i, jug'rofiy atamalarining qanday ma'no anglatishini o'qish-o'rganish bilan shug'ullanadi. Har bir joyning o'z nomi bo'lganidek, urug', qishloq, tepalar nomi

ham ma`lum bir ma`noda qo`llangan. Buni bilish esa har bir kishi uchun vatanparvarlik, o`z tug`ilib o`sgan yurtiga chuqur hurmati nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Haqiqatdan ham, yuqoridagi gaplarda jon bor. Shundan kelib chiqib biz malakaviy bitiruv ishimizning keyingi qismida Bulung`ur tumanidagi urug`, qabila, qavm bilan bog`liq toponimlarini, ya`ni etnotoponimlarni etimologik jihatdan tahlil etishga harakat qilamiz.

Bizga ma`lumki, urug` nomining joy nomiga ko`chishi onomastikada etnotoponim yoki etnooykonim deyiladi¹.

Etnotoponimlarni va etnooykonimlarni tadqiq etish bilan tilshunoslik, tarix etnografiya, geografiya kabi bir qator fanlar shug`ullanadi hamda bunday xarakterdagi joy nomlarining chuqurroq o`rganilishi o`sha hududdagi xalq yoki millatning kelib chiqishi, etnogenezini aniqlashga katta yordam beradi.

Umuman olganda, turkiy tillardagi, jumladan O`zbekistonning barcha hududlaridagi etnonimik boylikni to`plash va atroflicha tadqiq qilish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki xalq tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma`naviyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz malakaviy bitiruv ishimizning bu qismida Bulung`ur tumani hududida keng tarqalgan ikki va uch komponentli ayrim etnotoponimlar hamda etnooykonimlarni etimologik jihatdan tahlil etishga harakat qilamiz.

1. QORAKESAK - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Kesak – umumturkiy etnonim. Jumladan, qirg`izlarda bu etnonim *kesek* deb talaffuz qilinadi, uning tarkibida *bo`sto`n* (*bo`z to`nli*), *qiziloyoq*, *qorasadoq* kabi urug`lari ham qayd qilingan<sup>1</sup>. Qozoqlarda *qorakesak* O`rta O`rdaning aosiy qabilalardan biri sanaladi. SHu bilan birga qozoqlarning *arg`in* va *olchin* qabilalari tarkibida ham qorakesak degan urug` bo`lgan¹. Qipchoqlarning *qoraqipchoq* qabilasi tarkibida qorakesak urug`i bo`lgan. O`zbeklarning *qipchoq* qabilasi tarkibidagi *qoraqipchoq*, *tuyoqli* shaxobchasining *qorakesak*; boshqirdlarning tarkibida ham *kesak* degan urug` bo`lgan<sup>1</sup>. Boshqirdlarning bir urug`i *kese* deb ataladi. Boshqird olimi R.G.Kuzeev

keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, venger turkiyshunos olimi, akademik D.Nemet *kese* etnonimi “urug‘ning bo‘lingan, kesilgan qismi” ma’nosidagi qadimiy umumturkiy so‘z – *kese*y so‘zidan kelib chiqqan, deb hisoblaydi¹. B.O‘rinboev ham qadimgi turkiy tilda *kese*y so‘zi “urug‘ning bo‘lingan, kesilgan qismi” ma’nosini ifodalashini ta’kidlaydi [B.O‘rinboev, 259]. S.Qoraev A.D.Grebenkin ma’lumotlariga asoslanib, o‘zbeklarning *tuyoqli* qabilasining *mullakesak* va *mirzakesak* degan urug‘lari bo‘lganligini qayd qiladi [S.Qoraev, 176]. Bundan ko‘rinadiki, Bulung‘urdagi *Qorakesak* joy nomi eng qadimgi umumturkiy etnotoponimlaridan biridir.

2.. SARIYUZMON - Bulung‘ur tumanidagi qishloqlardan biri. Bu toponimning morfologik tarkibi uch morfemadan iborat: *sari(q)+yuz+mon*. Z.Ziyotovning ta’kidlashicha, qozoqlarning *jetiuruv*, *kriy* qabilalaridan biri *sarmon* // *sarman* deb yuritiladi¹. *Sariq* – umumturkiy etnonim, turkman, qozoq, qirg‘iz, boshqird, qoraqalpoq, o‘zbeklar tarkibida qabila, urug‘, urug‘ tarmog‘idir [T.Nafasov, 166]. O‘zbeklar tarkibidagi qatag‘onlar, mang‘itlar, batoshlar, qo‘ng‘irotlar urug‘ining bir tarmog‘i – *sariq*¹. B.O‘rinboevning talqiniga ko‘ra, *Sariyuzmon* toponimi tarkibidagi *yuz* – yuz qabilasining nomi, *–mon>on* – ko‘plik qo‘shimchasidir [B.O‘rinboev, 165]. Bundan ko‘rinadiki, Bulung‘urdagi *Sariyuzmon* eng qadimgi umumturkiy joy nomlaridan biri bo‘lib, etnonimdan oykonimga o‘tgan.

3. YUQORI QO‘SHTAMG‘ALI - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. T.Nafasovning ma’lumotlariga qaraganda, Qashqa-Surxon qo‘ng‘irotlari besh bo‘limining biri *qo‘sh tamg‘ali* deb yuritiladi [T.Nafasov, 264]. “Zominning til qomusi” asarida ko‘rsatilishicha, “*Qo‘sh tamg‘ali* – Zomin tumanidagi qishloq oti. Bu erda *yuz* urug‘ining *Rajab* bolasidan tarqagan tarmoqlaridan biri *qo‘sh tamg‘ali* elati vakillari gavjum yashaydi”¹. Z.Ziyotovning kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, *qo‘sh tamg‘ali* qo‘ng‘irot, nayman, yuz, turkman qabilalarining bir tarmog‘i. Bu urug‘lar kidanlar (qoraxitoylar) tarkibiga ham kirgan¹. O‘zbeklarning marqa, *jetiurug‘* va boshqa qabila, urug‘lari tarkibida ham *qo‘sh tamg‘ali* degan urug‘

bo'lgan [S.Qoraev, 185-186]. Qo'ng'iro't qabilasi *qarapchi* O'zbek qipchoqlarining bir tarmog'i *qo'shtamg'ali* deb atalgan [B.O'rinboev, 235]. Ana shu fikrlarga asoslanib, Bulung'urdagi *Yuqori qo'shtamg'ali* qishlog'i nomini etnooykonim, deyishga haqlimiz.

4. ESHMANTO'P - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Forscha *to'p* so'zi to'da, guruh ma'nosini ifodalaydi [O'TIL-5, 4, 241]. O'zbek urug'larining kichik bir shaxobchasi *eshmanto'p* deb atalgan [B.O'rinboev, 233]. Shunga binoan Bulung'urdagi *Eshmanto'p* qishloq nomi toponimlarning etnooykonimlar turiga kiradi.

5. SHO'RBEDANA - Bulung'ur tumanidagi qishloq. *Sho'r* so'zi forsha bo'lib, tuproq tarkibida tuzning ko'pligidan er betida hosil bo'lgan tuz moddasi ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 11]. Bedana O'zbek urug'laridan birining nomi [T.Nafasov, 47]. B.O'rinboev bu toponimni *sho'r* erdagi joyda *bedana* urug'i vakillari yashaydigan qishloq, deb izohlaydi [B.O'rinboev, 228]. Shunga asoslanib, Bulung'urdagi *Sho'rbedana* qishloq nomini toponimlarning etnooykonimlar guruhiga mansub deyish mumkin.

6. OYBEKTO'P - Bulung'ur tumanidagi qishloq. B.O'rinboevning fikricha, O'zbek urug'laridan kichik bir tarmog'i *oybek* deb atalgan [B.O'rinboev, 138]. S.Qoraevning ma'lumotlariga qaraganda, Toshkent viloyatining Chinoz tumanida, Xorazm viloyatining Shovot tumanida *Oybek* deb nomlangan qishloqlar mavjud. Surxondaryo viloyatidagi To'polondaryoning bir irmog'i *Oybeksuv* deb nomlanadi. Afg'onistonda *Aybak* shahri bor [S.Qoraev, 89]. Shunga ko'ra, Bulung'urdagi *Oybekto'p* qishlog'i nomini toponimlarning etnooykonimlar guruhiga mansub deyish mumkin.

7. CHAMBILTEPA - Bulung'ur tumanidagi qishloqlardan biri. Ma'lumki, turkiy xalqlarning dostonlarida *Chambil*, *Chambel*, *Chambilbel*, *Chambil Chortoq*, *Chortoqli Chambil*, *Chenli bel*, *Shamlibel*, *Shambil* kabi toponimlar Go'ro'g'li qarorgohini bildirgan. V.M.Jirmunskiy, H.T.Zaripovlar Islom shoirning "Gulixiromon" dostonidagi "*Bir belning ustiga bir cham degan daraxt paydo*

bo'lib, shu to'g'ridan Chambil ovozi ketdi" degan fikriga asoslanib, Chambilni qarag'ayli dovon, ninabargli daraxtlar o'sgan dovon deb izohlagan edilar¹. A.Ishaev ozarbayjon, turk, qrim-tatar, qaraim, chig'atoy, ba'zi Dog'iston tillarida qarag'ay (sosna), archa (el) daraxtining *cham – sham (cham ag'ach, shamag'ach – shamag'aj - shamag'ej)* deb atalishini aniqlagan, qiyosiy dalillar asosida tog' belidagi (tog'ning ikki cho'qqisi o'rtasidagi) qarag'ay o'sgan dovon tarzida sharhlagan edi¹. Lekin shuni unutmaslik kerakki, A.Ishaevning bu fikri janubiy O'zbekistondagi Chambillarga unchalik mos kelmaydi, chunki bu nom mavjud joylarda qarag'ay, archa daraxtlari o'smaydi, qadimiy nomlar tarkibida o'simlik, daraxt nomlari uchramaydi. Shunga ko'ra A.Ishaevning *Chambil* so'ziga bergan izohini shunday etimologik tahlillarning bir ko'rinishi deya olamiz.

T.Nafasov *Chambil* so'zining etimologiyasini quyidagicha talqin qiladi: *Cham* – joyning rel'ef shaklini, tabiiy xususiyatini bildiruvchi so'z. Turkiy tillarda *cho'ng ~ sho'ng* – yuksak, ulkan yirik ma'nolariga ega, tovush varianti – *chang~shang*. *Chang ~ cho'ng* va *bel* so'zlari birikib, *chang bel > chanbel > chambel (chambil)* yasalgan: yuksak dovon, baland bel, usti yassi balandlik. Dastlab balandlik nomi bo'lgan, so'ng shu balandlikdagi qo'rg'on nomiga aylangan. Qadimda aholi punktlari (qo'rg'on, qal'a kabilar) er sathidan balandroq joyga qurilgan [T.Nafasov, 200-201]. B.O'rinboevning fikricha, *Chambil* etnonim bo'lib, u *qanjig'ali* va *qo'shtamg'ali* urug'larining tarkibida mavjuddir [B.O'rinboev, 212]. S.Qoraevning ma'lumot berishicha, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida va O'zbekistonning boshqa hududlarida *Chambil* toponimi uchraydi. Qozog'istonda bu toponim *Jambil, Jambul* shakllarida qo'llanadi. Aslida *Chambil* urug' nomi, etnonimdir [S.Qoraev, 141]. Z.Ziyotov ham Chambilni qo'ng'iroq qabilasining bir urug'i deb hisoblaydi¹. SHunga ko'ra, Bulung'urdagi *Chambiltepa* joy nomini etnotoponim deyish mumkin.

8. TO'G'QIZI - Bulung'ur tumanidagi qishloq. *Uchqiz, Beshqiz, To'g'qizi* kabi joy nomlarida *qiz* so'zining ma'nosi *tepa* demakdir. Masalan, *Uchqiz* – uchtepa, *Beshqiz* – beshtepa, *To'g'qizi* – bayroqli tepa [B.O'rinboev, 193].

T.Nafasov *Qizariq, Qizbuloq, Qiztosh, Qiztogʻ, Qizqalʼa, Qizquduq, Qizqoʻrgʻon* singari joy nomlari tarkibidagi *qiz* soʻzini tahlil qilar ekan, *qiz* soʻzli nomlar tilda dastlab relʼef shakli va turlari nomi sifatida yuzaga kelganligini, keyinchalik ular axoli yashash maskanlari nomini yasash uchun xizmat qilganligini dalillar asosida koʻrsatib beradi [T.Nafasov, 244-245]. Shunga asoslanib, Bulungʻurdagi *Toʻgʻqizi* joy nomini baland tepada joylashgan qishloq deb izohlashimiz mumkin boʻladi.

9. SARTYUZI - Bulungʻur tumanidagi qishloq. S.Qoraevning kuzatishlariga qaraganda, *yuz* qabilasining bir tarmogʻi *sart juzi* yoki *sartyuz* deb ataladi. *Sart juzi* qishlogʻi Jizzax viloyatining Baxmal tumanida, *Sartyuz* qishlogʻi esa Toshkent viloyatining Bekobod tumanida mavjud [S.Qoraev, 109]. B.Oʻrinboev ham *yuz* qabilasining bir tarmogʻi *sartyuzi* deb atalishini qayd qiladi [B.Oʻrinboev, 167].

10. KATTA OʻROQLI - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Oʻzbek urugʻlari tarkibida *oʻroqli* degan urugʻ boʻlgan [S.Qoraev, 163]. X.Doniyorov oʻz asarida Oʻzbek qabila va urugʻlarini sanar ekan, *yuz (juz)* qabilasining *oʻymovut, oʻyuvli, oʻrmonchi, oʻroqli, oʻramas* urugʻlari bir toʻpni tashkil etishini taʼkidlaydi¹. Bu fikrni B.Oʻrinboev ham qoʻllab-quvvatlaydi [B.Oʻrinboev, 98]. Shunga binoan Oʻzbek xalqi orasida “*soʻloqlining toʻyida oʻroqlining ne ishi bor*” degan maqol ham mavjud (“*soʻloqli*” ham urugʻ nomi, etnonim). Shu dalillarga asoslanib, Bulungʻurdagi *Katta oʻroqli* joy nomi etnonimdan etnooykonimga oʻtgan, degan xulosaga kelish mumkin.

11. SARIOʻROQLI - Bulungʻur tumanidagi qishloq. S.Qoraevning kuzatishlariga qaraganda, *sari(q) oʻroqli* oʻroqli urugʻining bir tarmogʻi, shoxobchasi sanaladi [S.Qoraev, 107]. B.Oʻrinboevning fikricha, *oʻroqli* qipchoqlarning bir urugʻi nomi [B.Oʻrinboev, 166]. Shunga koʻra, Bulungʻurdagi *Sarioʻroqli* joy nomi eng qadimgi etnooykonimlardan biridir.

12. OQTEPAMITAN - Bulungʻur tumanidagi qishloq. S.Qoraevning maʼlumotlariga koʻra, *mitan* qabilasining bir boʻlimi *oqtepamitan* deb atalgan [S.Qoraev, 95]. B.Oʻrinboev ham xuddi shu fikrni qoʻllab-quvvatlaydi

[B.O‘rinboev, 147]. Z.Ziyotovning fikricha, mitan // mo‘ytan O‘zbek va qoraqalpoq xalqi tarkibiga singib ketgan urug‘. O‘zbek mitanlarning ko‘pchiligi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Zarafshonning o‘rta oqimida yashagan. 1920 yilda Samarqand viloyati mitanlaridan etti mingga yaqin kishi ro‘yxatga olingan. Ishtixon, Nurota, Bulung‘ur tumanlarida, ozroq qismi Karmana atroflarida hamda qashqadaryoning quyi oqimlarida yashagan. Mitan urug‘ining tarkibi va etnogenezi hozircha to‘liq o‘rganilmagan¹. Shunga ko‘ra Bulung‘urdagi *Oqtepamitan* toponimi etnooykonimlar guruhiga mansub, degan xulosaga kelish mumkin.

13. **KATTA QUYINCHI** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. *Quyın* - *quyun-quyun-qo‘ng‘irotlar* urug‘ining *qanjig‘ali* bo‘limiga qarashli 14 urug‘ning biri sanaladi [T.Nafasov, 258]. Qoraqalpoqlar qabilasining bir urug‘i quyın // quyun deb atalgan [S.Qoraev, 182]. B.O‘rinboev ham . bunday urug‘lar qo‘shnamg‘alilarning *kal* urug‘i tarkibida, qoraqalpolarda, boshqirdlarda ham mavjudligini qayd qiladi [B.O‘rinboev, 99].

14. **YOMON QUYONCHI** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. B.O‘rinboevning ma‘lumotlariga qaraganda, qoraqalpoq qiyatlarining tarkibidagi qo‘ldovlilarning *jomon quyonchi* shoxobchasi mavjud [B.O‘rinboev, 69]. SHuning uchun Bulung‘urdagi *Yomonquyonchi* joy nomini etnonimdan etnooykonimga o‘tgan, deyish mumkin.

15. **BESHKUBA** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. “Zominning til qomusi” asarida ko‘rsatilishicha, *Beshkubi* Achchi qishlog‘ining janubida Morguzar tizma tog‘lari yonbag‘rida tog‘oldi adirlari orasida joylashgan juda katta qadimiy qishloq. qishloqda o‘n ikki ota xitoyizi urug‘ining turli tarmoqlariga mansub kishilar yashashadi. Bir umr shu ovulda yashab, 96 yoshida dunyodan o‘tgan To‘ychiboy To‘qsonboy o‘g‘lining aytishlaricha, *beshkubi*, *tig‘iriy*, *qurqozon* urug‘lari bir otadan tarqalishgan¹.

Beshkuba // *Beshkubi* qishlog‘i kekxa kishilarining rivoyat qilishicha, bir odamning o‘g‘illari er etib, uylanishgach, otalari ularni ajratmoqchi, o‘z holiga

tirikchilik qilishga yo'llamoqchi bo'ladi. Udumga ko'ra yangi o'tboshidagilar mustaqil yashab ketishlari uchun ularga ota o'z ro'zg'oridan nimalardir berishi kerak ekan. Ammo otaning o'zida bir kuba // kubi (kuvi), bir tirraqi buzoq va bitta qozondan boshqa narsa yo'q ekan. Shu bois qo'li kalta ota katta o'g'ilga tirraqi tanachani beribdi. Undan tarqalganlar shu sababli “*tyg'yrlyq*” deb ataladigan bo'lishibdi. Quruq qozonni olgan o'rtancha o'g'ildan tarqaganlar keyinchalik “*qurg'azan*”larga aylanishibdi. Kuba // kubi (kuvi) tekkan kenjaning urpoqlari chorvaga moyib bo'lishganidan qozon-cho'michi moyga botib, o'zidan ko'payib, bir kubi (kuvi)si beshtaga etibdi. Chunki sog'ib pishiladigan oq juda mo'l ekan... Bu rivoyat ma'lum o'zgarishlar bilan “Zominning til qomusi”da ham keltirilgan¹.

B.O'rinboev *kuba* so'zining quruq dasht, toshloq, tuproqli joy, cho'l oldi; qipchoq qabilasi, qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibidagi urug' nomi ma'nolari borligini ham talqin etgan [B.O'rinboev, 31]. Shunga asoslanib, Bulung'urdagi *Beshkuba* joy nomi etnonimdan etnotoponimga o'tgan, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

16. **QURQOZON** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlaridan yuz qabilasining bir tarmog'i *qurqozon* // *quruqqozon* deb atalgan¹. B.O'rinboev ham xuddi shu fikrni ma'qullaydi [B.O'rinboev, 269]. “Zominning til qomusi” asarida ta'kidlanishicha, *Qurg'azan* // *Qurg'ozon* Zominning kunyurar (janub) tomonida o'rnamshgan qishloq nomi. Qishloqda o'n ikki ota xitoyizining bir shoxidan tarqalgan qavm yashaydi¹. S.Qoraevning ma'lumotlariga ko'ra, Farg'onada *quruqluqqozon* deb atalgan urug' vakillari ham mavjud. Shu bilan birga *qurqozon*, *qoraqozon*, *qozonsherik* deyilganda qishloq jamoasi, birgalashib ishlash tizimi tushuniladi [S.Qoraev, 184]. Yuqorida keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, Bulung'urdagi *Qurqozon* joy nomi eng qadimgi umumturkiy etnooykonimlardan biridir.

17. **TIG'IRIQ** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bu toponimning morfologik tarkibi *tig'a+ariq* qismlaridan iborat. *Tig'*<*tig'a* forsha-tojikcha so'z bo'lib, u osmonning kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi, zenit; quyosh harorati,

quyosh nuri ko'p yog'ilib, qizdirib turgan joy ma'nosini bildiradi [O'TIL-5, 4, 124]. *Ariq* – sun'iy ravishda yasalgan suv yo'li, o'zani va undagi suv [O'TIL-5, 1, 98]. Shu ma'lumotlarga asoslanib, B.O'rinboev bu toponimni quyidagicha izohlaydi: *Tig'iriq* – baland joydagi quyosh nuri ko'p yog'ilib turadigan joydagi ariq va qishloq [B.O'rinboev, 181]. Lekin bu toponimning boshqacha izohlari ham bor. Masalan, "Zominning til qomusi"da ta'kidlanishicha, *Тыг'ырық* – *Tig'iriq Achchi* bilan *Teshiktepa* orasida joylashgan qishloqlardan birining nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, "*tig'iriq*" atamasi "*tirriq*" so'zining o'zgarishlarga uchrashidan paydo bo'lgan va ozg'in ma'nosini beradi. Buning sababi sifatida shu qishloqqa asos solgan kishi mustaqil ro'zg'or qurib otasidan ajralib chiqayotganida unga faqat bir tirraqi buzoq tekkanini ko'rsatishadi¹. Lekin bu bir rivoyat, xolos. Aslida *Tig'iriq* joy nomi ham xuddi *Beshkuba* va *Qurqozon* singari etnotoponimlardan biri, degan fikrdamiz. Kelgusida Bulung'ur tumani etnotoponimlari yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar natijasida bu fikrga ham aniqlik kiritiladi, deb o'ylaymiz.

Shunday qilib, Bulung'ur hududiga oid toponimlarning qisqacha etimologik tahlili shundan dalolat beradiki, bu joy nomlarining asosiy qismi umumturkiy so'zlar bo'lib, bir va ikki o'zakli so'zlardir. Kelgusida tuman hududiga oid toponimlarning to'la etimologik tahlili yanada kengroq va asosliroq tarzda amalga oshirilishi lozim, degan fikrdamiz. Shu asosda "Bulung'ur tumani toponimlarining izohli lug'ati" maydonga kelgan bo'lardi.

UMUMIY XULOSALAR

Bulung'ur mikrotoponimiyasini leksik-semantik va etimologik yo'nalishda tadqiq etish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Bulung'ur tumani aholisining etnik tarkibi asosan turkiy xalqlar, ularning qipchoq urug'laridan iborat bo'lishi bilan birga, hududning ma'lum qismlarida tojik millati vakillari ham yashashadi. Tuman aholisining qadimdan o'troqlashuvida, xuddi turkiy qavmlarning boshqalarida bo'lgani singari, etnik an'analar ustunlik qilganligi ko'zga tashlanadi.

Tumandagi bu etnik holat hududdagi mikrotoponimlarning shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi sababli toponimik so'z yasashda forsha-tojikcha qatlam ham, oz bo'lsa-da, ishtirok etgan. Arab, mo'g'ul elementlari izlari, Markaziy Osiyo toponimiyasi tarkibida bo'lgani singari, Nurobod mikrotoponimiyasida ham qadimdan mavjud va bu lingvistik elementlar davrlar o'tishi bilan tilimizga singib ketgan, deyarli «o'z so'zlar»imizga aylanib qolgan.

2. Xalqning etnik tarkibini anglatuvchi nomlar (etnotoponimlar) jamiyat taraqqiyoti va dunyo sivilizatsiyasining ta'siri natijasida yo'qola borsa-da, ular hududning toponimik umumiy fondida saqlanib qolgan.

3. Bulung'ur mikrotoponimlari fonetik va morfologik strukturasining shakllanishida dialektal xususiyatlarning, ayniqsa, j-lovchi qipchoq shevalarning ta'siri sezilarli darajadadir. Ayni paytda, toponimlarning shakllanishi va dialektal me'yorlashishiga y-lovchi O'zbek sheva vakillarining ta'siri bo'lganligi ham kuzatiladi.

4. Tumandagi mikrotoponimlar tizimida oykonim, gidronim, oronim va nekronimlar salmoqli o'rin tutadi hamda antroponim, teonim kabi onomastik elementlarning mahsuldorligi, Nurobod tumani geografik sharoiti va landshaftiga to'la mos keladi. Bu holat toponimik nomlanishlardagi tabiiylik va an'anaviylikdan guvohlik beradi.

5. Bulung'ur tumani mikrotoponimlarining yuzaga kelishida asosan ot va

sifat turkumiga mansub bo'lgan alohida apellyativlar, jumladan, topoindikatorlarning o'zni salmoqli ekanligi ma'lum bo'ldi.

6. Bulung'ur toponimiyasi tizimidagi ayrim mikroguruhlarda o'ziga xos yadroviy topoelementlar mavjud. Ular dastlab birlamchi geografik ob'ektning nomi sifatida yuzaga kelgan va shu joy atrofidagi boshqa ob'ektlar (qishloqlar, mahallalar kabi)ga ko'chgan. Bu transonimizatsiyalashuv jarayoni toponimlar shakllanishining alohida maydonini yuzaga keltirib, ikkitadan ettitagacha bo'lgan yangi onimlarni vujudga keltirganligi aniqlandi. Ayni paytda, bu maydonda o'zining leksik-semantik ma'no anglatish ko'lamini kengaytirgan.

7. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Bulung'ur mikrotoponimiyasida ham o'z aksini topdi. Bu, ayniqsa, ma'muriy-hududiy chegaralanish va nomlanishlar bilan bog'liq holatlarda yaqqol aks etdi.

8. Mikrotoponimlarning makrotoponimlarga nisbatan birmuncha tez o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligini Nurobod tumani toponimlari tahlili ham tasdiqlaydi. Shuning uchun ham ularning vaqti-vaqti bilan qayd etib borilishi tarixiy-lingvistik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Bulung'ur tumani mikrotoponimiyasi tizimining ma'lum qismini qadimiy, tarixiy nomlar tashkil qiladi. Mustaqillik davrida unutilishga yuz tutgan ko'pgina tarixiy toponimlarning tiklanganligi milliy ruhga moyillikning kuchayib borayotganligini ko'rsatadi.

10. Dala amaliyoti jarayonida to'plangan va ushbu ishda tahlil etilgan toponimlar necha ming yillar davomida tuman hududida yashab kelayotgan xalqning ma'naviy merosi va madaniy mulki bo'lib hisoblanadi va bu boylikning asrlar osha saqlanib qolishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga, bu to'plangan material kelgusida Bulung'ur tumani mikrotoponimlari izohli lug'atining yaratilishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bulung'ur tuman toponimlarining leksik-semantik va etimologik tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Nurobod tumani toponimiyasi

hozircha tuliq o'rganilmagan. Jumladan, XX asrning oxirgi choragida tuman toponimiyasida yuz bergan o'zgarishlarni tadqiq etish shular jumlasidandir. Shahar, ko'cha, maxalla nomlarining keyingi yillardagi o'zgarishlari va taraqqiyotidan, olib borgan kuzatishlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, toponimlarda barqarorlik, qat'iylik, eski, umummilliy an'analarni qayta tiklashga intilish alomatlarini kuchli darajada ko'zga tashlanadi.

Bulung'ur tumanida 1989-1991-yillar mobaynida joy nomlari o'zbekchalashtirildi. 1991-1994-yillarda mafkuraviy nomlar yangi milliy nomlar bilan almashtirildi. Tumandagi joy nomlari 1995-2000-yillar oralig'ida butunlay qayta ko'rib chiqilib, ularga muhim, asosli xarakterdagi yangi tuzatishlar kiritildi.

Bulung'ur tumani toponimlarning alfavit tartibi joriy qilindi. 2002-yildan keyin tumandagi toponimlarda ilgari bo'lgan takror nomlar o'zgartirildi. 2007-2010-yillar davomida Bulung'ur tumani hokimligi xuzuridagi toponimik komissiyaning sa'y-harakatlari bilan ayrim nomlar hozirgi mafkuraviy siyosatga tuliq moslashtirildi. Masalan: *Do'stlik, Istiqlol, Gulzor, Olmazor* mahallalari kabi.

11. Umuman olganda, mazkur malakaviy bitiruv ishi uchun mavzu sifatida olingan Bulung'ur tuman toponimlarining leksik-semantik va etimologik tahlili bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimizdan yana qo'shimcha ravishda shunday xulosalarga kelish mumkin:

11.1. Bulung'ur tumani toponimlari lug'at tarkibida asosan turkiy toponimlar o'rin olgan. Shu bilan birga tuman hududida *Nebo'sa, Chorbog', Bot-bot, Mo'g'ol, Changalpayon, Kulchabiy, Mextar* kabi ayrim tojikcha, arabcha, sug'dcha nomlar ham mavjudligi aniqlangan.

11.2. Toponimlarda turli ma'naviy-semantik guruhlariga oid nomlar ham mavjud. Bular orasida *Katta+qishloq, Qirq+shodi, Besh+qo'ton, Yangi+ariq, Oq+tepa, Ming+chinor, Suluv+qo'rg'on, O'rta+buloq, Kichik Kildon* kabi qo'shma toponimlar salmoqli o'rin egallaydi.

11.3. Tumandagi ayrim tarixiy toponimlar lug'aviy semantik jixatdan o'z qo'llanish doirasini kengaytgan. Bunga *Bulung'ur* toponimi yaqqol misol bo'la

oladi. Dastlab bu nom tarixiy kanal nomi sifatida ma`lum edi. Keyinchalik davrlar o'tishi bilan bu toponim onomastik birlik sifatida o'z semantik doirasini quyidagicha kengaytirdi: *Bulung'ur kanali – Bulung'ur tumani - Bulung'ur shaxarchasi - Bulung'ur mahallasi - Bulung'ur arig'i – Bulung'ur shirkat xo'jaligi - Bulung'ur ko'chasi – Bulung'ur avtoshohbekati – Bulung'urariq mahallasi - Bulung'ur temiryo'l stantsiyasi – Bulung'ur tumani bosmaxonasi* kabi.

11.4. Bulung'ur tumani toponimlarini yig'ib taxlil qilish O'zbek toponimikasini yangi materiallar bilan boyitadi. O'zbekiston va Samarqand viloyati toponimik xaritasini tuzishda ushbu materiallardan foydalanish kelgusida juda muxim ahamiyat kasb etadi.

11.5. Bulung'ur tumani mikrotoponimiyasining gramatik qurilishi rang-barang bo'lib, ularning lisoniy xususiyatlari mazkur malakaviy bitiruv ishida qisman o'rganilib, ma`lum xulosalarga kelindi.

11.6. Bulung'ur tumani toponimiyasini sinchiklab, ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish kelgusida bu tuman tarixi, geografiyasi va shu erda yashovchi xalq tili bilan bog'liq etnogenetik jarayonlarni aniqlash, shu asosda xalqning urf-odati, yashash tarzi, etnik tarkibi haqida muayyan ilmiy-nazariy xulosalarga olib kelishi muqarrar.

Shunga muvofiq kelgusida Bulung'ur tumanining toponimiyasini, uning o'zidek qadimgi va ulug'vor nomlarini chuqurroq va yirikroq planda tadqiq etish lozim, deb hisoblaymiz. Ana shunday ish amalga oshirilganda, Bulung'ur tumaniga oid toponimlar haqida kengroq ilmiy-nazariy tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bizning malakaviy bitiruv ishimiz esa bu sohadagi dastlabki urinishlardan biri, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilmiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
3. Баркамол авлод орзуси (“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга ошириш борасидаги публицистик мулохазалар). - Тошкент, “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 1999. – 184 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Географик объектларнинг номлари тўғрисида // Халқ сўзи, 2011 йил 13 октябрь.
5. Миллий истиқлол гоёси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент, Ўзбекистон, 2000. – 80 б.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

6. Абдиев М. Булунғур тумани ономастикасига оид қисқача мулохазалар // Рахматулла Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – Б. 35-36.

7. Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.

8. Асланов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик тахлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.

9. Бегалиев Н. Самарқанд топонимияси (мақолалар тўплами). - Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2010. – 128 б.

10. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 92 б.

11. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – 168 б.

12. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 52 б.

13. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.
14. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 3. – Б. 3-9; № 4. – Б. 7-9.
15. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган катлами. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 27 б.
16. Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик тахлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.
17. Дониёров Ҳ. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 98 б.
18. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
19. “Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. – 106 б.
20. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 112 б.
21. Ишаев А. “Манғит” сўзининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1958. № 2. – Б. 63-65.
22. Ишаев А. “Чамбил” сўзининг этимологияси // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1978. - Б. 100-102.
23. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: «Шарқ», 2006. – 192 с.
24. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.
25. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. Монография. – Тошкент: Фан, 2006. – 131 б.
26. Ономастика Востока. - М.: Наука, 1980. - 236 с.

27. Ономастика Узбекистана. Материалы 2-республиканской научно-теоретической конференции (Карши, 14-16 сентября 1989 г.). – Ташкент, 1989. – 208 с.
28. Орипов Ў.А. Нурота тумани макро- ва микротопонимларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 22 б.
29. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. - Тошкент, Фан, 1989. - 56 б.
30. Отажонова А.Хоразм этнотопонимлари.–Тошкент: Фан,1997.–129 б.
31. Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 22 б.
32. Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и ее окрестностей. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М.: 1973. – 31 с.
33. Сувонкулов Л. Гўзал Булунғур (туман тарихи, ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ҳақида очерк). – Тошкент: “Академия ноширлик маркази”, 2009. – 110 б.
34. Темиров Ш. Эгизтепа / Эгизактепа оронимлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 4. – Б. 92-94.
35. Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.
36. Турдибеков М.Т. Абулғози Баходирхоннинг “Шажарайи турк” асари ономастикаси. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 22 б.
37. Туробов А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 88 б.
38. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 400 б.

39. Шукуров А. “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши хақида. – Қарши: “Насаф” нашриёти, 2010. – 68 б.
40. Элмуродов Н. Топонимияда экстралингвистик омиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 3. – Б. 93-95.
41. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқ йўллари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 56 б.
42. Эназаров Т. *Касби* ва *Булунгур* топонимларининг этимологияси хақида // Тил ва адабиёт таълими, 2003. № 2. – Б. 94-95.
43. Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услубий қўлланма. – Тошкент: Университет, 2010. – 112 б.
44. Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тахлили // “Тил ва адабиёт таълими” журнали, 2012, № 4. – Б. 46-47.
45. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.
46. Юлдашев Д.Т. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Нукус, 2012. – 23 б.
47. Қораев С. Тошкент топонимлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 64 б.
48. Қораев С. Топонимика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – 320 б.
49. Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 81 б.
50. Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изохлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонулло Бўриев. - Тошкент, Ўзбекистон, 2008. – 64 б.

III. Lugʻatlar:

51. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – 104 б.
52. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
53. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати (Ўзбекистоннинг жанубий туманлари). – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.
54. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли лугати (мактаб ўқувчилари, коллеж ва лицей талабалари учун). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – 87 б.
55. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: “Мухаррир” нашриёти, 2009. – 432 б.
56. Нормуродов М., Нафасов Т. Чироқчинома. Қашқадарё вилояти Чироқчи тумани қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: “Мухаррир” нашриёти, 2010. – 168 б.
57. Турон қавмлари. Кичик энциклопедик луғат. Тузувчи: Зойир Зиётов. – Тошкент: “Истиқлол”, 2008. – 232 б.
58. Ўринбоев Б. Жиззах топонимларининг таъбири. – Самарқанд, 2007. – 80 б.
59. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар (Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи). – Самарқанд: Зарафшон, 2003. – 264 б.
60. Ўринбоев Б., Ҳолиқов О. Мактаб топонимик луғати. – Самарқанд, 2004. – 92 б.
61. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 204 б.
62. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. – 240 б.

63. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.

Shartli qisqartmalar:

ADD – avtoreferat doktorskoy dissertatsii.

AKD – avtoreferat kandidatskoy dissertatsii.

B.O‘rinboev – B.O‘rinboev. Asrlardek barhayot nomlar, Samarqand, 2003.

DDA – doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati.

NATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, to‘rt tomlik, 1-1Y-tomlar, Toshkent, 1983-1985.

NDA – nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.

S.Qoraev – Qoraev S. Geografik nomlar ma`nosi, Toshkent, 1978.

T.Nafasov - Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati, Toshkent, 1988.

TTIL – Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.

O‘zAS – “O‘zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi.

O‘zME – O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1-X1Y-tomlar. – Toshkent, 2001-2007.

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomlik. – M.: 1981.

O‘TIL-5 – O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildli. – Toshkent, 2006-2008.

O‘TSIL – Hojiev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1974.

Ilova:

BULUNG‘UR TUMANI TOPONIMLARINING

QISQACHA IZOHLI LUG‘ATI

ESLATMA: Mazkur toponimlarning qisqacha izohli lug‘atini tuzishda T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, B.O‘rinboyev, X.Egamov, T.Enazarov, T.Raxmatov, N.Begaliyev kabi olimlarning toponimikaga oid lug‘atlaridan, ilmiy maqolalaridan, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” materiallaridan foydalanildi.

1. **Alamli** – Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Alam arabcha bo‘lib, u “bayroq, tug‘, nishon, alomat, belgi” ma‘nosi bilan aloqadordir. –li mavjudlik ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimchadir. Alamli “aziz-avliyolar mozori”, “shahid o‘lgan kishi ko‘milgan joydagi belgi” demakdir. Alamli muqaddas joyda o‘sgan daraxt shoxlariga yoki shaxid bo‘lgan kishi mozoriga qoqilgan tayoqqa osilgan har xil lattalardir.

2. **Almatso‘fi** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Toponim almat va so‘fi qismlaridan iborat. Xalq izohiga ko‘ra, birinchi bo‘lib hovli-qo‘rg‘on qurgan kishi ismi bilan atalgan. Almat – Ali Muhammad ismining qisqargan ko‘rinishi.

Qadimgi kerayit, oltoylar va o‘zbeklarda almat urug‘i bo‘lgan. Etnonim oykonimga o‘tgan.

So‘fi – masjidda azon aytuvchi kishi; muazzin; sodda, go‘l, xudojo‘y odam.

Almatso‘fi – xudojo‘y Almat nomi bilan atalgan qishloq. Antroponim toponimga o‘tgan.

3. **Alqartepa** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Toponim alqar va tepa qismlaridan iborat. Alqar “yovvoyi tog‘ qo‘yi”, tepa “boshqa joyga nisbatan yuqori, baland bo‘lgan joy” degani.

Umuman, Alqartepa alqori ko‘p bo‘lgan tepalik demakdir.

4. **Achamayli** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Xo‘kiz, qo‘tosga uriladigan egar yoki bolalar ishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay // achamay deyilgan.

Achamayli “tamg‘asi egar shaklidagi urug‘” demak.

Qo‘ng‘irot qabilasining vaxtamg‘ali bo‘limi, kenagas, yuz, do‘rman, nayman, qurama, marqa qabilalarining bir shoxobchasi achamayli deb atalgan. Qoraqalpoqlar tarkibida ham achamayli urug‘i mavjud.

5. **Barlos** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Barlos “qadimgi turkiy qabilalaridan biri”, “mo‘g‘ullarning barulos qabilasi”, mo‘g‘ulcha “semiz, kuchli”, “turkiy lashkarboshi, yo‘lboshchi, botir, jangchi” ma`nolarida qo‘llanilganligi ta`kidlanadi. Barlos so‘zining lug‘aviy ma`nosida ham yuqoridagi ma`nolar bor. Etnonimning birinchi qismi bar mo‘g‘ulcha yo‘lbars, sher, arslon, burgut, lashkarboshi demak. So‘nggi qismi –ilos, -ulas, -los, -las, -ga, -gut, -kut, -qut, -lagdir.

O‘zbeklardagi barkut, mo‘g‘ullardagi barga, barlag degan qabilalar nomlari ham yuqoridagi sharxlangan ma`no bilan bog‘liq. Hozirgi yoqut tilida bar kul “burgut, yo‘lbars” ma`nosini bildiradi.

Barlos tarixan ham yasama so‘z bo‘lib, u ham yo‘lbars, ham burgut ma`nosini bildirgan. Ana shu totem nomidan urug‘, qabila nomi yuzaga kelgandir.

6. **Bedana** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Bedana qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub, ovlanadigan kichik sayroqi qush ko‘p bo‘lgan joy ma`nosidadir, deyiladi xalq etimologiyasida.

Xalq shevalarida mavjud bo‘lgan pidanani yadpiz so‘zi bilan bog‘laydilar.

Bu toponim forscha *pex >bex>* be - “keng, katta” va dana – “ombor, istehkom, atrofi o‘ralgan joy” so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, katta istehkom, keng ombor ma`nosini anglatadi.

7. **Chuqurbekat** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Bekat so‘zi “uzoq qatnov yo‘llaridagi to‘xtash joyi, manzil”, “pochta stantsiyasi”, “temir yo‘l, avtobus stantsiyasi”, “karvonsaroy”, “o‘rmon xo‘jaligi” ma`nolarini bildiradi.

8. **Bekto‘p** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Toponim bek va to‘p qismlaridan iborat. Bek – O‘rta Osiyoda feodal xonliklardagi mansab yoki tuman boshlig‘i. Bu so‘z “aslzoda, hukmdor, ulug‘, katta, janob” ma`nosida ham

qo'llaniladi. To'p – ko'p, to'da kishilar guruhi.

9. **Beshkal** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mang'it va yuzlarning kichik bir urug'i. O'zbek tilida so'zlovchi arablarning bir shoxobchasi beshkal deb ataladi.

Demak, bu o'rinda etnonimdan qishloq nomi hosil bo'lgan.

10. **Beshkuba** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kuba so'zining quruq dasht, toshloq, tuproqli joy, cho'l oldi; qipchoq qabilasi, qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibidagi urug' nomi ma'nolari borligini talqin etadilar. Beshkuba – etnonimdan toponimga o'tgandir.

11. **Beshbola** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Beshbola toponimining “besh” va “bola” talqini ko'p tarqalgan. Ayrimlar toponim pesh “oldi”, bolo “tepalik, balandlik” deb izohlaydilar. Ayrim tadqiqotchilar beshbolani urug' nomi deb ko'rsatadilar. Bu fikrga qo'shilsa bo'ladi, chunki qo'ng'irotlarning oyini bo'limida, Zarafshon vodiysi qoraqalpoqlarida sariqipchoqlar tarkibida, turkmanjuzlari marka shohobchasida beshbola urug'i mavjud. Qishloq aholisining etnik tarkibiga nisbat berish asosida nomlangan.

12. **Beshkapa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim besh va kapa qismlaridan iborat. Kapa daraxt shoxlari va yirik o't-o'lanlardan vaqtincha yashash uchun yasalgan xona, yozlik uy; chayla.

13. **Beshqo'ton** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ton – qo'y qamaladigan qo'ra yoxud qo'y qishlashi uchun qulay bo'lgan chuqur jly. Beshni “qadimiy, ko'hna”, “past”, “yuqori, baland”, “ko'p” ma'nolarida qo'llanishini izohlaydilar.

Beshqo'ton – qo'y qamaladigan qo'y qo'rasi ko'p bo'lgan joy.

14. **Birlik** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Birlik so'zi “hamjihatlik, yakdillik”, “umumiylilik, mushtaraklik”, “sanash, o'lchash, hisoblash uchun mezon sifatida qabul qilingan kattalik” ma'nosini bildiradi.

15. **Bolg'ali** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'irot, qora xitoy, yuz qabilalari tarkibida bir urug' bolg'ali deb ataladi. Ularning tamg'asi bolg'a shaklida bo'lgan.

Bolg'ali – etnooykonimdir.

16. **Botbot** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim botbot mo'g'ulcha boom so'zining o'zgargan shakli bo'lsa kerak. Chunki buum-bum so'zi mo'g'ulcha buu fe'lidan olingan bo'lib, asl ma'nosi "yo'lni to'smoq, bo'g'ib qo'ymoq", "dara", "darband", "baland va tik tumshuq", "tor vodiylar" degan tushunchalarni ifodalaydi. Ilono'tdi darasidan o'tadigan shamol Botbot qishlog'i tarkibidagi tumshuqqa urilib qishloqqa tegmay Bulung'ur shahri tomon yo'naladi.

17. **Bog'bon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bog' va uning mevali daraxtlarga, tok va nullarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi mutaxassis kishi.

18. **Bulung'ur** - Bulung'ur tumanidagi shahar. Bulung'ur toponimi turlicha izohlanadi. Bulung'ur – mo'g'ulcha loyqa suv deb izohlovchilar ko'p. Bulung'ur umumturkiy so'z bo'lib, u bulung // pulung // bulun – burchak, oxiri, chegarasi, burun va kir // xir // xur – yonbag'ir, tog' yonbag'ridagi tik soylik, zov, uzunasiga ketgan tog', tepalik qirrasini, tog' etagi, tog' qirrasini.

Bulung'ur – uzunasiga ketgan yassi tog' burchagi. O'zbek tilining Urgut shevasida bulung – burchak ma'nosida hozir ham ishlatiladi: Qopning bulungidan ushla.

19. **Bulung'ur** - (mo'g'ulcha bulugar – loyqa suv) – Zarafshon vodiysidagi eng qadimgi kanallardan biri. Uzunligi 90 km., suv sarfi 21 m³/s. Miloddan avval qazilgan. Zarafshon daryosidan suv oladi. Ulug' qishlog'i yonidan boshlanadi. Bulung'ur va Payariq tumanlaridagi erlarni suv bilan ta'minlaydi, Oqdaryoga quyiladi.

20. **Bulung'ur** – tuman nomi. Samarqand viloyatiga qarashli tumanlardan biri. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Bulung'ur tumani shimolda Jizzax viloyatining G'allaorol tumani, sharqda Baxmal tumani, g'arbda Samarqand viloyatining Jomboy tumani, janubi-g'arbda Toyloq tumani, janubda Urgut tumani, janub-sharqda Tojikiston bilan chegaradosh. Bulung'ur tumanida 1 shahar (Bulung'ur) va 7 qishloq fuqarolar yig'ini (Beshqo'ton, Kulchabiy, Navoiy, Sohibkor, Fozil Yo'ldosh, O'rtabuloq, Kildon) bor. Markazi Bulung'ur shahri. O'zME, 2, 245-b.

21. **Bo'ston** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bo'ston – o'zbek, qirg'iz va ozarbayjonlarning tarkibidagi urug' nomi. Bo'ston urug'i nomi oykonimga o'tgandır.

22. **Go'shgo'p** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim go'sh go'sha va go'p qismlaridan iborat.

Go'sh<go'sha fors-tojikcha bo'lib, u odamlar nazaridan uzoq er, ovloq joy; burchak, puchmoq; faqirona turar joy; boshpana, kulba ma'nosidadir. Go'p – katta, qo'pol, besunaqay odam demak.

23. **Devonatepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zini tanho tutishga intilib, zikru xudoga terilib ketganso'fiylar istiqomat qiluvchi tepa atrofidagi qishloq.

24. **Dobil** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Dobil dovul kuchli emiruvchi bo'ron; ovchilar to'pchi qorovullar yoki qarbiylar uchun belgilangan maxsus nog'ora.

25. **Yerteshar** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimda er – ekin maydoni, joy, makon, masofa; a'zo va narsaning qismi, bo'lagi. Teshar – parmalab, o'yib, kuydirib yoki boshqa yo'l bilan teshish ma'nosini bildiradi.

O'yish yo'li bilan hosil qilingan teshiklar yonidagi ekin maydoni yoki joy – Erteshar demak.

26. **Yomon quyonchi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qoraqalpoq qiyatlarining tarkibidagi qo'ldovlilarning jomon quyonchi shoxobchasi bor.

27. **Jamonjar** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Saroylarning yomon-jomon urug'i yashaydigan jar yonidagi qishloq.

28. **Janjal** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bir-biri bilan aytishish, sanu manga borish; urushish; bir-biri bilan da'volashish, haq talashish, da'vo kabilar janjal so'zining ma'nolarini tashkil qiladi.

29. **Jar** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Oqar suvlar yumshoq tog' jinslarini o'yib hosil qilgan chuqurlik jar deb ataladi.

Jar – chuqurlik, pastlik joyida bunyod etilgan qishloq.

30. **Jonxo'roz** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim tarkibidagi jon<jom<jan<jim so'zi sizot suv, kanal, buloq, suv manbai, ariq, anhor, jilg'a, daryo shaxobchasi ma'nolarini bildiradi. Xo'roz so'zi mo'g'ul, qalmoq, buriyat tillarida quriya, qo'riyan, qo'ra, xo'ra, xo'ru, xo'ryun tarzida ishlatiladi va u "hovli, g'ov, qarorgoh, qo'ton, molqo'ra, to'siq, xon qarorgohi, kazarma, devor, ixota" ma'nolarini beradi. Turkiy tillar taraqqiyotining oltoy davrida –z ko'plik ma'nosini bildirgan. Shuning uchun xo'ra, xo'ru, xo'ryun so'zlari xo'raz, xo'ro'z, xo'ryuz tarzida ko'plikda ishlatilgan. Xo'raz-xo'ro'z-xo'ryo'z so'zlari o'zbekcha xo'roz tarziga kelib qolgan.

Jonxo'roz – suv manbaiga ega bo'lgan qarorgoh demak.

31. **Juguton** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Juhut so'zlashuv nutqida aynan yaxudiy demak. Somiy tillari guruhiga mansub, butun dunyoga keng tarqalgan, kelib chiqishi va dini bir xil bo'lgan guruhlardan iborat xalq juhud // yaxudiy deb ataladi. –on ko'plik qo'shimchasi toponimning sharhlangan ma'nosi bilan aloqasi yo'q. Pastqam uylari bir-biriga tutashib ketgan, tor ko'chali bo'lganligi uchun yahudiylar yashaydigan uylarga o'xshatilgan. SHu o'xshatish asosida qishloqqa nom berilgan.

32. **Zertong** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Zer<bar-var-far-par – yuqori, baland; kulba, yurt, ko'chma manzil; joy; qo'rg'on; tong – tovon, quyi, etak, masofa jihatdan past tomon.

Zertong – balandlikning quyi tomonidagi qishloq.

33. **Ingichka** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Barcha tog'lik tumanlarda soy, dara, jilg'a.

Ingichka suv o'zanining tor va oqim kuchli bo'lib, o'tish qiyin bo'lgan o'zani yonida bo'lgan qishloq.

Ingichka urug' nomi bo'lsa kerak degan taxminlar ham bor.

34. **Ishmanto'p** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ishman<Eshman kishi nomi, antroponim. To'p – guruh, to'da, etnik va territorial guruh.

Ishmanto'p – Eshman avlodlari guruhi yashaydigan joy.

35. **Kapali** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o't-o'lanlar bilan o'rab olingan xona; yozlik uy; chayla – kapa deb ataladi.

SHunday uyi bor qishloq Kapali demakdir.

36. **Kaptarxona** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kaptar yashaydigan joy (jar, g'or, quduq, erto'la, uy) kaptarxona deb ataladi. Ana shunday joylar yaqinidagi aholi yashaydigan hudud – Kaptarxona demak.

37. **Katta jonxo'roz** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim katta+ jon +xo'roz qismlaridan iborat. Jom<jon so'g'dcha bo'lib, u kanal, buloq, suv manbai. Xaroz>xurus>xo'roz - eshak, tuya, ot kabilar kuchi bilan harakatlanadigan chig'ir (charx) suv inshooti.

38. **Katta paxtaboshi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yangi er o'zlashtirilib, paxta ekilgan dalaning boshida bunyod etilgan katta qishloq.

39. **Katta xo'jabachcha** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'ja o'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhining nomiga aylangan. Undan joy nomlari tarkibiga o'tgan.

40. **Katta o'roqli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek urug'lari tarkibida o'roqli degan urug' bo'lgan. Shundan "so'loqlining to'yida o'roqlining ne ishi bor" degan maqol ham bor ("so'loqli" ham urug' nomi).

41. **Katta qishloq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qishloq so'zining qishda yashaydigan joy degan ma'nosiga aloqasi yo'q. Qishloq<qishlikdan kelib chiqqan. Qishlik urug' nomi.

Katta qishloq – qishlik urug'i vakillarining katta qismi yashaydigan joy.

42. **Katta quyinchi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Quyin - quyun-quyun-qo'ng'irotlar urug'ining qanjig'ali bo'limiga qarashli 14 urug'ning biri. Bunday urug'lar qo'shtamg'alilarning kal urug'i tarkibida, qoraqalpoqlarda, boshqirdlarda ham mavjud.

43. **Kildon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha kil<kild – qamish, nay; nayqalam, qalam. –on qo'shimchasi o'rin-joy oti yasagan. Kildon – qamishli,

qamish o'sgan joy.

44. **Kultepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kultepa – kul tashlanadigan joy. Kulxona demak.

45. **Lalmikor** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha so'z bo'lib, lalmi+kor. Dehqonchilik tarzi va suvdan fydalanish usuliga ko'ra dehqon lalmikor va obikor deb atalgan. Lalmikor sug'orish inshootlari (ariq, kanal, band)dan foydalanmasdan erdan nam va tabiiy yog'inlar yordamida etishtirilgan dehqonchilik maxsulotlari va usuli.

46. **Loyqa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Suv va suv olib kelgan jinslardan hosil bo'lgan maydon loyqa deb ataladi. Qishloq nomi shundan olingan.

47. **Mang'it** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mang'it O'zbek urug'laridan birining nomi. Bu urug' o'z navbatida oq mang'it, qora mang'it, och mang'it, chala mang'it, boygundi mang'it, temirxo'ja, isoboy, gaulak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, ko'latamg'ali, mang'itqozoq, o'n ikki cho'qay, galabotir, beshkal, chobakchak, o'z, uvolay kabi tarmoqlarga bo'lingan.

Kattaqo'rg'on tumanidagi Mang'iton, Urgut tumanidagi Mang'itobod, Ishtixon tumanidagi Mang'ittepа, Pastdarg'om, Urgut tumanlaridagi Oqmang'it nomlari yuqoridagi o'zakdandir.

48. **Mextar** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Buxoro amirligida mextar mansab nomi bo'lib, u kattaroq, katta kishi; oliy maqom; maxsus otlarga qarovchi sayis ma'nosidadir. Mextar – zakot yig'uvchi, soliq olish va egasi noma'lum mulklarni tasarruf qilish ishlari bilan shug'ullangan.

49. **Mingchinor** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ming so'zi toponimlar tarkibida ko'plab uchraydi. Bu so'z asli ma'nosidan tashqari "ko'p, juda ko'p" so'zi o'rnida ham qo'llanilgan.

Mingchinor – shu o'zakdan hosil qilingan chinori ko'p joy, qishloq ma'nosidadir. Shunga ko'ra mahalliy axoli bu joy nomini mingta yoki ko'p chinor daraxti ekilgan, o'sgan joy, deb izohlaydi.

50. **Mirzabuloq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mirzabuloq - yuqoridagi

katta buloq demak.

51. **Mirzaboshi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek xonliklarida kotibiyat boshlig'i – Mirzaboshi demakdir.

52. **Mitan** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Markaziy Osiyo xalqlari tarkibida uchraydigan urug' mitan deb atalgan.

Ko'pchilik olimlar ta'kidlaganidek, mitan so'zi fors tilidagi metana so'zidan kelib chiqqan va u yashash joy, uy, urug' ma'nolarini bildiradi. Shuning uchun har bir mitan so'zi bilan bog'liq joy nomining haqiqiy ma'nosini izohlash uchun tarixiy-lingvistik tadqiqot o'tkazish zarur. 123-b.

53. **Mullaesagi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'qimishli, es-hushli kishilari ko'p bo'lgan joy demakdir.

54. **Mo'ytan** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitan qabilasining nomi, qoraqalpoqlarda mo'yten deb atalgan.

Mo'ytan etnonimdan oykonimga o'tgan.

55. **Mo'g'al** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mo'g'al – mo'g'ol-mo'g'il-mo'g'ul - qadimgi turkiy qabilalaridan biri. Etnonim asosida qishloq nomi yaratilgan.

56. **Navro'z** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha navro'z - yangi kun; quyosh (shamsiya) yili hisobida yangi yilning birinchi kuni 21 martga to'g'ri keladi; Bahorning boshlanishi, bahor chog'i.

57. **Nebo'sa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qoraqalpoqlarning bir urug'ining shaxobchasi nebo'sa deb atalgan.

Nebo'sa etnonimdan oykonimga o'tgan.

58. **Niyozmat** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim niyoz va mat<mamat<muhammad qismlaridan iborat. Joy nomi antroponimdan toponimga o'tgan.

59. **Nurafshon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Rasmiy nomi Zarafshon gidronimiga o'xshatib yasalgan: nur+afshon – nur beruvchi. Ob'ekt bilan nom o'rtasida mantiqiy munosabat yo'q. Kattaqo'rg'on tumanidagi Nuriston qishlog'i

nomi ham shu asosda paydo bo'lgan.

60. **Oybekto'p** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek urug'laridan kichik bir tarmog'i oybek deb atalgan. Oybekto'p – etnooykonimdir.

61. **Olqartepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yovvoyi tog' qo'yi yashaydigan tepa atrofidagi qishloq.

62. **Omonturdi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tarkibi omon+turdi. Omon – sog'-salomatlik, tinchlik, osoyishtalik. Turdi – yashab qolsin, tursin.

Omonturdi – osoyishta tursin.

63. **Ochamayli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'irotlar vaqtang'ali bo'limining bir urug'i ochamayli deb atalgan.

Ochamayli – etnooykonimdir.

64. **Oqtepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Oq so'zi tepa, jar, qum, mula so'zlari bilan birikkanda rang ma'nosini bildirmaydi, balki tepalarning tik va en ko'lamini ifodalaydi.

Oqtepa – yon atrofida shu tipdagi boshqa balandliklardan hajman katta, balandroq bo'lgan tepa.

65. **Oqtepamitan** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitan qabilasining bir bo'limi oqtepamitan deb atalgan.

Oqtepamitan etnooykonimdir.

66. **Oqtom beshbola** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'irot qabilasining kichik bir urug'i beshbola deb atalgan.

67. **Oqtosh quyonchi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Quyonchi urug' nomi. Oqtosh kvartsga boy bo'lgan joy, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshli er. Ana shunday erda tashkil etilgan quyonchi urug'ining qishlog'i.

68. **Oqqovun** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek urug'lari tarkibida qovchin urug'i mavjud. U Qovunchi shaklida toponimga aylangan. Toponimning ikkinchi qismi qovchin >qovunchi >qovun tarzidagi yo'lni bosib o'tgan.

Oqqovun – qovchin urug'i vakillari yashaydigan qishloq demak.

69. **Pastkildon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha kilk – qamish,

nay; nayqalam, qalam; -on affiksi o‘rin-joy oti yasagan.

Pastkildon – qamishli, qamish o‘sgan joyning pastidagi qishloq.

70. **Pastqo‘sh tamg‘ali** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Qo‘ng‘irotlar, marqa, jetiurug‘ tarkibida qo‘sh tamg‘ali degan urug‘ bo‘lgan.

71. **Paxtaboshi** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Paxta ekishga mo‘ljallangan erning boshida bunyod bo‘lgan qishloq.

72. **Ravot** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Asli arabcha rabot – “karvonsaroy – musofirxona, shahar devori, shaharning tashqi qismi; chegara posti, istehkom, qo‘rg‘on” ma’nolarini bildiradi.

73. **Sariyuzmon** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Tarkibi sari+yuz+mon. Qatag‘onlar, mang‘itlar, batoshlar, qo‘ng‘irotlar urug‘i tarmog‘i – sariq. YUz – yuz qabilasi. –mon>on – ko‘plik qo‘shimchasi.

Sariyuzmon – etnonim oykonimga o‘tgan.

74. **Sario‘roqli** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. O‘roqli qipchoqlarning bir urug‘i nomi.

Sario‘roqli – etnooykonimdir.

75. **Saroy** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Saroy – umumturkiy etnonim. Saroy qabilasining chemsaroy, qo‘ng‘irotsaroy, jomonsaroy, qirg‘izsaroy, mojorsaroy, oltintamg‘alisaroy, qipchoqsaroy, jolong‘ochsaroy kabi tarmoqlari bor.

76. **Sartyuzi** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Yuz qabilasining bir tarmog‘i sartyuzi deb atalgan.

77. **Soyxo‘jabachcha** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Tekisliklar, qir va adirlarda keng, sayoz, bir tomonga cho‘zilgan pastlik er; er ustining turli xil yo‘llar bilan hosil bo‘lgan botiq qismi; kichik daryo, irmoq; quruq vodi, suv yo‘li soy deb ataladi. Soy oronimiyadan toponimiyaga o‘tgan joy nomi.

Soyxo‘jabachcha – oykonimdir.

78. **Solin** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. O‘zbek qabilalari tarkibida solin degan urug‘ bo‘lgan. Solin urug‘i o‘z navbatida tog‘aytubi, jovubchisol, in,

shodmontubi, kavratsolin, davlatsolin, , uyazsolin, kirsadoksolin degan shahobchalarga bo'lingan.

Solin – etnooykonimdir.

79. **Sohibkor** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'z ishining ustasi, omilkor bog'bon sohmboq deyiladi. Sohibkor omilkor bog'bonlar bunyod etgan qishloq demak.

80. **Suzoq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Suzoq so'zi xalq turadigan joy, manzilgoh degan ma'noni anglatadi. Qozoq, qirg'iz va o'zbeklar tarkibida suzoq urug'i mavjud. Shunga ko'ra Suzoq – etnooykonimdir.

81. **Tegirmon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. G'allani, donni yanchib un qilish – un tortish uchun moslangan qurilma va shunday qurilma o'rnatilgan joy (bino).

Tegirmon – shunday qurilmasi mavjud bo'lgan qishloq.

82. **Temiryo'l** - Bulung'ur shahridagi mahalla nomi. Temir – qoramtir kumush rangli og'ir metall ma'nosiga toponimning aloqasi yo'q. Chunki kenagas qabilasining kichik bir urug'i temirchi deb atalgan.

Temiryo'l – temiryo'l bekatiga yaqin joyda joylashgan axoli yashash manzilgohi, mahalla nomi demak.

83. **Tepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tepa – er sathidan baland, do'ng joy, tepalik, balandlik. Umuman boshqa joyga nisbatan yuqori, baland bo'lgan joy.

84. **Tig'iriy** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tarkibi tig'a+ariy qismlaridan iborat. Tig'<tig'a forsha-tojikcha so'z bo'lib, u osmonning kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi, zenit; quyosh harorati, quyosh nuri ko'p yog'ilib, qizdirib turgan joy. Ariy – sun'iy ravishda yasalgan suv yo'li, o'zani va undagi suv.

Tig'iriy – baland joydagi quyosh nuri ko'p yog'ilib turadigan joydagi ariy va qishloq.

85. **Tortuvli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tortuvli O'zbek urug'laridan biri bo'lib, u tamg'asiga qarab nomlangan. Tamg'asi tortug'<to'rtug' – to'rt nayzali shoxasimon bo'lgan. Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali, qo'shtamg'ali,

qanjig‘ali, oyinni, tortuvli kabi besh bo‘limi mavjud. Tortuvli – etnooykonimdir.

86. **Tuyoqli** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. O‘zbek qipchoqlarining bir shaxobchasi tuyoqli deb atalgan. Tuyoqli – etnooykonimdir.

87. **Tumanovul** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Tuman so‘zi o‘n ming; ma‘muriy bo‘linish; quyi, past, etak ma‘nolarini bildiradi.

Tumanovul – quyidagi qishloq, ovul demak.

88. **Tumor** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Tumor – ichiga duo yozilgan qog‘oz joylangan uchburchak narsa, xotin-qizlar bezagi, uchburchak shakliga ega bo‘lgan ma‘nosidadir.

Tumor – uchburchak shakldagi erda joylashgan qishloq.

89. **Tumshuq** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Tog‘ yoki yirik balandliklarning bo‘rtib chiqqan do‘ng qismi tumshuq deb ataladi.

90. **To‘qay** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. To‘qay – qamish bosib yotgan zax yoki botqoq er; qamishzor; quyuq chakalakzor; quyuq, zich o‘sgan narsa.

To‘qay – qamishzorlar o‘rnida bunyod etilgan qishloq.

91. **To‘qboy** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Mang‘it qabilasining bir urug‘i to‘qboy deb atalgan. To‘qboy – etnooykonimdir.

92. **To‘qqizboy** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. O‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, boshqirdlar tarkibida to‘g‘iz urug‘i mavjud. To‘qqizboy – etnooykonimdir.

93. **To‘g‘qizi** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Uchqiz, Beshqiz, To‘g‘qizi nomlarida qiz so‘zining ia‘nosi tepa demak. Uchqiz – uchtepa, Beshqiz – beshtepa, To‘g‘qizi – bayroqli tepa. Qiz so‘zli nomlar tilda dastlab relʼef shakli va turlari nomi sifatida yuzaga kelgan, so‘ngra axoli yashash maskanlari nomi yasash xossasini ham orttirgan.

94. **Ukrach** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Nayman qabilasining bir urug‘i ukrach deb atalgan. Etnonim oykonimga o‘tgan. Shunga binoan Ukrach – etnooykonimdir.

95. **Urguch** - Bulung‘ur tumanidagi qishloq. Naymanlarning kichik bir

tarmog'i urguch deb atalgan.

Urguch – etnooykonimdir.

96. **Uyas** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Uyas<uyaz so'zi pashsha, chivin; etnonim sifatida talqin qilinadi. Uyas O'zbek urug'larining bir tarmog'i bo'lib, u marqa urug'i tarkibiga kiradi. Uyas boshqa urug'lar tarkibiga ham kirgan. Jumladan, uyazsolin.

97. **Farmontepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimning birinchi qismi farmon fors-tojikcha bo'lib, u "biror ishning bajarilishi haqida berilgan buyruq, topshiriq, ko'rsatma; davlat boshlig'ining qonun kuchiga ega bo'lgan buyrug'i, farmoyishi" ma'nosidadir.

Farmontepa – hokimiyat Oliy organi boshlig'i, hokimning buyrug'i asosida bunyod etilgan tepa demak.

98. **Xapa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xapa – xafa, g'amli, qayg'uli, xasratli; ranjigan, ozor topgan, bezgan; arazlagan ma'nolarini ifodalaydi.

99. **Xolmurod** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimning tarkibi xol+murod bo'lib, u istak, maqsad ma'nosidadir. Antroponim keyinchalik oykonimga o'tgan.

100. **Xon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xon "hokimi mutlaqning unvoni va u unvonni olgan kishi; xon nomini olgan kishi nomiga va erkak-ayollar nomiga qo'shmb aytiladigan so'z" ma'nosidadir. Otashparastlarning diniy kitobi "Avesto"da xon so'zi "quduq, chashma, buloq" ma'nosini bildirgan. Xon gidronimdan oykonimga o'tgan.

101. **Xo'jabachcha** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim xo'ja+bachcha qismlaridan iborat. Bachcha fors-tojik tilidan olingan bo'lib, u bola; birovning qaramog'ida va ixtiyorida bo'lgan xushro'y, kelishgan o'yinchi o'g'il bola, besoqol, raqqos ma'nolaridadir.

102. **Xo'jamazgil** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim xo'ja+mazgil<manzil qismlaridan iborat. Mazgil<manzil safarda, yo'lda to'xtab o'tiladigan, qo'nib turiladigan yoki etib borish mo'ljallangan marra; yo'lning bir

to'xtash joyidan ikkinchi bir to'xtash joyigacha bo'lgan masofa; turar joy; istiqomatgoh, vatan.

103. **Xo'jaqishloq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'ja so'zi forsha xo'jayin, sohib, ijtimoiy tabaqa; etnik atama, arablar naslidan bo'lgan.

104. **Xo'jaqo'rg'on** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'jalar qo'rg'oni, muqaddas qo'rg'on.

105. **Chambiltepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chambil etnonim bo'lib, u qanjig'ali va qo'shtamg'ali urug'larining tarkibida mavjuddir.

Chambiltepa – etnotoponimdir.

106. **Changal** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Daryo bo'ylarida, ayniqsa uning qayir va terassalaridagi o'tish qiyin bo'lgan butazor changal deyiladi. SHu o'zak asosida hosil qilingan Changali bolo, Changali poyon toponimlarining izohi ham shu asosda aniqlanadi.

107. **Chibat** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'z urug'ining bir bo'limi chibat (chubat) deb atalgan. Chibat – etnooykonimdir.

108. **Chimqishloq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chim<chem – tevaragi o'r, handaq bilan o'ralgan, em-xashak bosiladigan, mol qamaladigan joy; tashqi dushman va tabiiy ofatlardan saqdanish uchun atrofini devor, chuqur o'r, tor handaq bilan o'rab olingan joy; qo'rg'on. Ishtixon tumanidagi Chimqo'rg'on nomi ham yuqoridagi asosda shakllangan.

109. **Chorbog'** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chorbog' so'zining "to'rt bog'", "atrofi devor bilan o'ralgan har qanday bog'", "urug' nomi" deb izohlaydilar. Qadimgi turkiy va so'g'd tillarida marvag' so'zi bo'lib, u "qasr" degan ma'noni bildirgan: Pishpak otlig' sarvag'inta turu ieginur men ("Oltin yoruq").

Oqdaryo, Tayloq tumanlaridagi Charvoqtepa qishlog'i nomi ham shu asosda shakllangan.

110. **Chordara** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chordara – to'rt eshikli xona, podsholik chegarasidagi minora – qorovulxona, choldevor deb izohlaydilar.

Dara soʻzining ikki togʻ yoki tepalik oraligʻidagi uzun, tor chuqur joy, jarlik maʼnolari ham bor.

111. **Choshtepa** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Tekis joyda qoʻlda qilingan tepa yoki eski qoʻrgʻon qoldigʻi oldidagi usti tuproq bilan qoplangan doʻnglik – choshtepa.

112. **Chubat** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Oʻzbek qavmlari tarkibida chubat urugʻi mavjud. Chubat – etnooykonimdir. Tayloq tumanidagi Chubatelpak qishloq nomi ham shu oʻzakdandir. Shu Chubatelpak toponimining Elpak qismi ham etnooykonim sanaladi.

113. **Chuyut** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Oʻzbek, qozoq, qoraqalpoqlar tarkibidagi kenagas, uyshun urugʻlarining bir boʻlimi suyut deb atalgan. Chuyut etnooykonimdir.

114. **Shoʻra** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Fors-tojikcha shoʻra soʻzi tashlandiq erlarda, ekin maydonlarida gʻovlab oʻsadigan yovvoyi oʻt; tokning toʻp guli, gʻunchasi.

Shoʻra – fitonimdan oykonimga oʻtgan, fitooykonimdir.

115. **Shoʻrbedana** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Shoʻr erdagi joyda bedana urugʻi vakillari yashaydigan qishloq. Shunga binoan Shoʻrbedana etnooykonimdir.

116. **Erganakli** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Erganak soʻzi “katak” degan maʼnoni bildiradi. Oʻzbek urugʻlari tarkibida erganakli>erganak urugʻi mavjud. SHunga binoan Erganakli // Erganak etnooykonimdir.

117. **Eskirabot** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Sobiq rabot oʻrnida bunyod boʻlgan qishloq.

118. **Eshmantoʻp** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Oʻzbek urugʻlarining kichik bir shaxobchasi eshmantoʻp deb atalgan. Shunga binoan Eshmantoʻp etnooykonimdir.

119. **Yuqori qoʻshtamgʻali** - Bulungʻur tumanidagi qishloq. Qoʻngʻirot qabilasi qarapchi Oʻzbek qipchoqlarining bir tarmogʻi qoʻshtamgʻali deb atalgan.

Yuqori qo'shtamg'ali – etnooykonimdir.

120. **Yalpizog'och** – Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tibbiyot, attorlik va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan serbarg, xushbo'y va ko'p yillik o'simlik. Yalpizog'och shu o'simlik o'sadigan joydagi qishloq.

121. **Yangibet** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bet odam yuzining oldingi qismi, yuz, aft; biror narsaning sirti; sahifa; chet; qirg'oq, sohil; tig', dam. Yangibet – betkay tomondagi yangi qishloq.

122. **Yangiyo'l** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Dastlab kolxoz nomi bo'lgan, so'ng qishloq nomiga aylangan rasmiy nom (toponim).

123. **Yangiobod** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Belgi bildiruvchi so'zlar (yangi, katta kabilar) asosida qishloq nomi yasash dehqonchilik madaniyatining yuksalishi, qo'riq erlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq jarayonni o'zida aks ettiradi. Yangiobod – yangi o'zlashtirilgan erda tashkil bo'lgan qishloq.

124. **Yangiravot** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ravot shahardan chetroqdagi turar joy. Yangiravot – shahardan chetroqda yangi bunyod etilgan qishloq.

125. **Yangierganakli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Erganak so'zining ma'nosi "katak" demak. Erganakli etnonim. Yangierganakli – etnooykonimdir.

126. **Yangiqishloq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ilgari qishloq bo'lmagan joyda paydo bo'lgan yangi axoli yashash punkti ma'nosidadir.

127. **Yangi qurilish** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tubdan yangi turar joylar bunyod etilgan qishloq Yangi qurilish deb nom olgan.

128. **Yangi qora** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qirq qabilasining bir tarmog'i qora (qoracha) deb ataladi. Yangi qora – qora urug'iga tegishli kishilarning yangi qishlog'i demakdir.

129. **O'ray** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qipchoqlarning sariqipchoq shaxobchasiga kiruvchi kichik urug' o'ray deb atalgan.

O'ray – etnooykonimdir.

130. **O'roqli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qabilalari tarkibida

mavjud bo'lgan urug'lardan biri o'roqli deb ataladi.

O'roqli – etnooykonimdir.

131. **O'tap** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim aslida o'tari bo'lib, u qo'ng'irotlar tarkibidagi urug' nomi.

O'tap, o'tari – etnooykonimdir.

132. **O'qlan** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kenagaslar qabilasining bir urug'i o'qlan-o'g'lon deb atalgan.

O'qlan – etnooykonimdir.

133. **Qarapchi** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qarapchi etnonim sifatida O'zbek urug'lari tarkibida tilga olingan. Qarapchi so'zi “kambag'al, nochor” degan ma'noni bildiradi.

Qarapachi – etnooykonimdir.

134. **Qaraq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek shevalarida qaratqi so'zi bo'lib, u “qo'riqchi” ma'nosini bildiradi. Qaraq<qaraki – tomorqasiga qo'riqchi qo'yilganlar qishlog'i.

135. **Qoraqalpoq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Turkiy tillardan birida so'zlashuvchi qoraqalpoq xalqi, O'zbek tilining qoraqalpoq shevasida gaplashuvchilar nomi bilan atalgan qishloq Qoraqalpoq deb nomlangan.

Qoraqalpoq – etnooykonimdir.

136. **Qirq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibiga kirgan eng yirik qabilalardan biri qirq deb nomlanadi.

Qirq – etnooykonimdir.

137. **Qirq Ahmad** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qishloq qirq urug'i vakillari yashagani uchun shunday nomlangan.

Qirq Ahmad – etnoantropooykonimdir.

138. **Qiy** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek urug'lari tarkibidagi bir shaxobcha qiy<qiyanni<qiyanni – quyonli deb atalgan. Etnomlar tarkibidagi –ni, -li qo'shimchalarining tushib qolish hollari mavjud.

Qiy – etnooykonimdir.

139. **Qoraariq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qora – er osti sizot suvlari yig'indisi. Qoraariq – sizot suvlari yig'ilib oqadigan ariq va shu ariq yonidagi qishloq nomi.

140. **Qoraariqmitan** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitan qabilasining bir shaxobchasi qoraariqmitan deb ataladi. Qoraariqmitan – etnooykonimdir.

141. **Qorakamar** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kamar – tevaragi qir, qirsimon balandlik bilan o'ralgan yarim halqa botiq, tokchasimon shakldagi joy, halqob. Qorakamar – tevaragi yolg'iz do'ngliklar bilan o'ralgan kamar.

142. **Qorakesak** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kesak – umumturkiy etnonim. O'zbeklarning qipchoq qabilasi tarkibidagi qoraqipchoq, tuyoqli shaxobchasining qorakesak; boshirdlarning tarkibida ham kesak degan urug' bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda kesey so'zi “urug'ning bo'lingan, kesilgan qismi” ma'nosidadir.

143. **Qoratepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qora so'zi tepa so'zi bilan birikkanda rang ma'nosini bildirmaydi, balki tepalarning tik va en ko'lamini ifodalaydi. Oqtepa – balandroq tepa, Qoratepa - pastroq tepa. Qoratepa aholi punktlaridan yiroqda, ba'zan tog' etaklarida bunyod etiladi.

144. **Qoraqalpoq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy qabila, urug'lardan biri qoraqalpoq. Qishloq urug' nomi bilan atalgan.

Qoraqalpoq – etnooykonimdir.

145. **Qoraqursoq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'iroq qabilasi vaxtamg'ali bo'limining bir urug'i qoraqursoq deb atalgan. SHunga binoan Qoraqursoq – etnooykonimdir.

146. **Qoraqo'ng'iroq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limiga qarashli 16 urug'ining biri qoraqo'ng'iroq. SHunga binoan Qoraqo'ng'iroq qishloq nomi etnooykonimdir.

147. **Qorovultepa** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yirik aholi punktlari atrofida, katta yo'llar bo'yida tashqi dushman haqida xabar berish uchun qorovullar turadigan tabiiy va sun'iy balandlik; qadimiy qo'rg'on xarobalari

atrofidagi qishloq qorovultepa deb atalgan.

148. **Quvvat** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbeklarning qipchoq, qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibida quva (quba) urug'i mavjud. So'zdagi -t qo'shimchasi chidamlilikni ifodalagan. "Quvvat" so'zi "biror mavjudotning jismoniy ish yoki harakat qobiliyati, kuch, energiya; bir vaqt ichida bajariladigan ish miqdori; korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari majmui; chidam; moddiy imkoniyat, boylik, qurb, qobiliyat, layoqat; bilim, malaka, dalda, madad", degan ma'nolarni bildiradi.

149. **Qulchabiy** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim qulcha(n)+biy qismlaridan tashkil topgan. Qipchoqsaroy urug'ining bir tarmog'i qulchan deb atalgan. Biy so'zi qabilaning boshlig'i, to'rasi; yuqori mansabli kishiga berilgan unvon; oqsoqol. Nayman qabilasi tarkibida biya urug'i ham bor.

Qulchabiy – qulchan urug'i oqsoqoli bunyod etgan qishloq, degan ma'noni bildiradi.

150. **Qum** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qattiq minerallarning, asosan kvartsning sochiluvchan mayda donalari va ularning to'plami – Qumdir. Qum bilan qoplangan joy, qumloq ma'nolariga monand joy nomlari boshqa tumanlarda ham mavjud.

151. **Quralas** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibida quralas urug'i nomi tilga olinadi. Quralas turklashgan mo'g'ul qabilalaridan biri hisoblanadi. Quralas – etnooykonimdir.

152. **Qurilish** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qurilish ishlari olib borilayotgan joy, qurilayotgan ob'ekt – Qurilish.

153. **Qurqozon** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlaridan yuz qabilasining bir tarmog'i qurqozon // quruqqozon deb atalgan. Qurqozon – etnooykonimdir.

154. **Qo'ng'iro't** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbeklar, qozoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kirgan yirik qabilardan biri qo'ng'iro't deb ataladi. Qo'ng'iro't – etnooykonimdir.

155. **Qo'riq** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Hali ishlanmagan , ammo ekin ekishga yaroqli joy, bo'z er qo'riq deb ataladi. Shunday maydon, mavze atrofida bunyod etilgan qishloq nomi - Qo'riqdir.

156. **Qo'shtamg'ali** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'iroq, qarapchi, qipchoq qabilalarining bir tarmog'i qo'shtamg'ali deb atalgan. Qo'shtamg'ali – etnooykonimdir.

157. **G'ayir** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. G'ayir<g'ajar – etnonim. Bu etnonimning tarkibi qojar>g'ajar>g'ayir tarzida tovush o'zgarishiga uchragan. G'ayir – etnooykonimdir.

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	3
Kirish.....	8
I. Bulung‘ur tumani toponimlarining leksik-semantik va struktural-grammatik tahlili	18
II. Bulung‘ur tumani toponimlarining etimologik tahlili.....	35
UMUMIY XULOSALAR.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	56
2. Lug‘atlar.....	60
Shartli qisqartmalar.....	61
ILOVA: Bulung‘ur tumani toponimlarining qisqacha izohli lug‘ati.....	62